O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Zamonaviy biologiyaning dolzarb muammolari: yechimlari,
istiqbollari va o‘qitishda fan-ta’lim integratsiyasi”
respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi ilmiy ishlar
TO`PLAMI

Министерство высшего образования, науки и инноваций
Республики Узбекистан, Чирчикский государственный
педагогический университет
СБОРНИК
научных материалов республиканской научно-практической
конференции «Актуальные проблемы современной
биологии: решения, перспективы и интеграция науки и
образования в обучении»

Ministry of Higher Education, Science & Innovation of the Republic of
Uzbekistan, Chirchik State Pedagogical University
COLLECTION
of scientific materials Republic scientific & practical conference
“Current problems of modern biology: solutions, prospects &
integration of science & education in teaching”

2026 yil 21-sentabr Chirchiq (O‘zbekiston)

TASHKILOTCHILAR/ ОРГАНИЗАТОРЫ / ORGANIZERS

MAHALLIY HAMKORLAR / ОТЕЧЕСТВЕННЫЕ ПАРТНЁРЫ / LOCAL PARTNERS

XALQARO HAMKORLAR / МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПАРТНЁРЫ / INTERNATIONAL PARTNERS

ILMIY QO‘MITA A’ZOLARI:

Rais

Muxamedov G‘afurjan – *Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektori*

Rais o‘rinbosarlari

Ziyadullayev Odiljon – *CHDPU ilmiy va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor*
Raximov Atanazar – *Tabiiy fanlar fakultiteti dekani*
Fayziyev Voxid – *Biologiya kafedrasi mudiri*
Amanov Baxtiyar – *Genetika va evolyutsion biologiya kafedrasi mudiri*
Ramazanov Baxtiyor – *Biologiya kafedrasi dotsenti*
Bo‘ronov Akmal – *Genetika va evolyutsion biologiya kafedrasi dotsenti*

A’zolar

Mo‘minov Hasan – *Genetika va evolyutsion biologiya kafedrasi dotsenti*
Temirov Abdumovlon – *Biologiya kafedrasi dotsenti*
Egamberdiyeva Lola – *Biologiya kafedrasi dotsenti*
Abduqodirov Murodxo‘ja – *Genetika va evolyutsion biologiya kafedrasi dotsenti*
Zakirov Doniyor – *Genetika va evolyutsion biologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi*
Jovliyeva Dilfuza – *Biologiya kafedrasi o‘qituvchisi*
Atabayeva Damira - *Biologiya kafedrasi o‘qituvchisi*
Tursunova Nilufar – *Genetika va evolyutsion biologiya kafedrasi o‘qituvchisi*
Qarshiboyeva Dono – *Biologiya kafedrasi o‘qituvchisi*
Pulatov Baxtiyor – *AMTMQT ITI direktori*
Urinova Adolat – *AMTMQT ITI katta ilmiy xodimi*
G`ofurova Laziza – *UzMU professori*
Bobomurodov Shuxrat – *TATI direktori*
Xujanov Alisher – *SAMDU dotsenti*
Boysunov Boymurod – *QARDU professori*

Xalqaro a‘zolar

Chirkov Sergey – *Professor, MGU Rossiya*
Abdullayev Abdumannon – *Professor, IBFIRGR ANRT Tojjikiston*
Said Xamoda – *Professor, Qohira universiteti Misr*
Raviprakash G.Dani – *Professor, Biotexnologiya markazi, Hindiston*
Ashurov Abdushukur – *Dotsent, Abu Ali ibn Sino nomidagi Tojikiston davlat meditsina Universiteti*
Yusupov Shamshaddin – *Dotsent, M.Avezov nomidagi Janubiy Qozog‘iston Universiteti*
Kistaubayeva A. – *Professor, Al Farobiy nomli Qozog‘iston Milliy universiteti*

MANZIL: O‘zbekiston, 111700, Toshkent viloyati, Chirchiq, Amir Temur shoh ko'chasi, 104

ЧЛЕНЫ НАУЧНОГО КОМИТЕТА

Председатель

Мухамедов Гафуржан - ректор Чирчикского государственного педагогического университета

Заместители председателя

Зиядуллаев Одилжон - проректор по науке и инновациям ЧДПУ
Рахимов Атаназар - декан факультета «Естественных наук»
Файзиев Вохид - заведующий кафедры "Биология"
Аманов Бахтияр – заведующий кафедры «Генетика и эволюционная биология»
Рамазанов Бахтиёр - доцент кафедры "Биология"
Буронов Акмаль - доцент кафедры «Генетика и эволюционная биология»

Члены конференции

Муминов Хасан - доцент кафедры «Генетика и эволюционная биология»
Темиров Абдумовлон - доцент кафедры "Биология"
Эгамбердиева Лола - доцент кафедры "Биология"
Абдукадиров Муродходжа – доцент кафедры «Генетика и эволюционная биология»
Закиров Дониёр – старший преп. кафедры «Генетика и эволюционная биология»
Жовлиева Дилфуза – преподаватель кафедры "Биология"
Атабаева Дамира – преподаватель кафедры "Биология"
Турсунова Нилуфар – преп. кафедры «Генетика и эволюционная биология»
Каршибоева Доно – преподаватель кафедры "Биология"
Пулатов Бахтиёр - директор НИИ экологии и природоохранных технологий
Уринова Адолат — с.н.с. НИИ экологии и природоохранных технологий
Гафурова Лазиза – профессор УзМУ им. М.Улугбека
Шухрат Бобомуродов – директор ИПИАИ
Худжанов Алишер – доцент СамГУ
Бойсунов Боймурад - профессор КАРГУ

Международные члены конференции

Сергей Чирков - профессор, МГУ России
Абдуллаев Абдуманнон - Профессор, IBFIRGR ANRT Таджикистан
Саид Хамода - профессор Каирского университета, Египет
Равипракаш Г. Дани – профессор, Центр биотехнологии, Индия
Ашуров Абдушукур - доцент Таджикского государственного медицинского университета имени Абу Али ибн Сино
Юсупов Шамшаддин – доцент кафедры растениеводство и животноводство Южно-Казахстанского университета имени М.Авезова
Кистаубаева А. - Профессор, Казахский национальный университет имени Аль-Фараби

АДРЕС: Узбекистан, 111700, Ташкентская область, г. Чирчик, проспект Амира Темура, 104

SCIENTIFIC COMMITTEE MEMBERS

Chairman

Mukhamedov Gafurzhan - Rector of the Chirchik State Pedagogical University

Vice Chairs

Ziyadullaev Odiljon - Vice-Rector for Science & Innovation
Rakhimov Atanazar - Dean of the Faculty of Natural Sciences
Faiziev Vohid - head of the Department of "Biology"
Amanov Bakhtiyar – head of the Department of «Genetics & Evolutionary Biology»
Ramazanov Bakhtiyor - Associate Professor of the Department of "Biology"
Buronov Akmal - Associate Professor, Department of «Genetics & Evolutionary Biology»

Conference members

Muminov Khasan - Associate Professor, Department of "Genetics & Evolutionary Biology"
Temirov Abdumovlon - Associate Professor of the Department of "Biology"
Egamberdieva Lola - Associate Professor of the Department of "Biology"
Abdukadirov Murodkhoja - Lecturer at the Department of "Genetics & Evolutionary Biology"
Zakirov Doniyor – Lecturer at the Department of "Genetics and Evolutionary Biology"
Zhovlieva Dilfuza – Lecturer at the Department of "Biology"
Atabayeva Damira - Lecturer at the Department of "Biology"
Tursunova Nilufar - Lecturer at the Department of "Genetics & Evolutionary Biology"
Karshiboeva Dono - Lecturer at the Department of "Biology"
Pulatov Bakhtiyor - Director of the Research Institute of Ecology & Environmental Technologies
Urinova Adolat - Research Institute of Ecology & Environmental Technologies
Gofurova Laziza - Professor of NUUz after named M.Ulugbek
Shukhrat Bobomurodov - Director of IPAI
Khujanov Alisher - Associate Professor of SamSU
Boysunov Boymurad - professor of KSU

International members of the conference

Sergei Chirkov - Professor, Moscow State University of Russia
Abdullaev Abdumannon - Professor, IBFIRGR ANRT Tajikistan
Said Hamoda - Professor at Cairo University, Egypt
Raviprakash G.Dani – Professor, Center for Biotechnology, India
Ashurov Abdushukur - Associate Professor of the Tajik State Medical University named after Abu Ali ibn Sino
Yusupov Shamshaddin - Associate Professor of the Department of Department of Biology & Plant Growing of M. Avezov South Kazakhstan University
Kistaubaeva A.-Professor, Al Farabi Kazakh National University

ADDRESS: Uzbekistan, 111700, Tashkent region, Chirchik, Amir Temur avenue, 104

Ҳамма соҳанинг келажаги сизларга, илм-фанга боғлиқ. Бундан кейин мамлакатимизга келаётган ҳар бир хорижий инвестициянинг муайян фоизи илм-фанни ривожлантиришга йўналтирилади. Илм-фан ривожлансагина эртанги кунимиз ҳақида тасаввур қила оламиз.

Ш.М.Мирзиёев

СЎЗ БОШИ

2017-йил 30-сентябрдаги "Ўзбекистон Республикаси Мактабгача таълим вазирлигини ташкил этиш тўғрисида"ги, 2017-йил 8-августдаги "Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида"ги, 2017-йил 14-мартдаги "Ўрта махсус, касб-ҳунар таълими муассасалари фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги, 2017-йил 20-апрелдаги "Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги, 2017-йил 22-майдаги "Олий ўқув юртидан кейинги таълим тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Президент Қарорларида кадрлар тайёрлаш сифатини тубдан такомиллаштиришга, хусусан, тизимга ривожланган хорижий мамлакатлар тажрибасини тадбиқ этишга жиддий эътибор қаратилган.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022-йил 28-январдаги ПФ-60-сон Фармонида 2022-2026-йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида Миллий манфаатлардан келиб чиққан ҳолда, умумбашарий муаммоларга ёндашиш бўйича 80-мақсадида: Экология ва атроф муҳитни муҳофаза қилиш, шаҳар ва туманларда экологик аҳволни яхшилаш, "Яшил макон" умуммиллий лойиҳасини амалга ошириш масаласи давлат сиёсати даражасида эканлиги ўз ифодасини топган. Айниқса, ҳудудларда "Яшил макон" умуммиллий лойиҳаси доирасида ҳар йили энг камида 200 миллион туп дарахтлар экиш кўзда тутилган. Айниқса, дарахтларни экиш ва парвариш қилиш соҳасидаги бошқарув тизимини такомиллаштириш; илмий ёндошувлар асосида ҳудудларнинг тупроқ-иқлим ва бошқа хусусиятларини аниқлашга қаратилган тадқиқот ва таҳлилларни амалга ошириш ҳамда бунинг натижасида ҳудудлар кесимида республика харитасини ишлаб чиқиш; кўчатхоналар сонини кўпайтириш, тупроқ унумдорлигини ҳисобга олган ҳолда, ҳудудлар иқлимига мос хорижий манзарали дарахтларни

маҳаллийлаштириш; ҳудудларда «яшил боғлар» ва «яшил жамоат парклари»ни барпо этиш; дарахтларни суғориш тизимини қайта кўриб чиқиш, унинг самарали фаолиятини таъминлаш; ҳар бир дарахтни парвариш қилишучун масъул бўлган шахсларни белгилаш, бу борада рағбатлантириш механизмларини кенг жорий этиш, дарахтларни шикастлантириш ва нобуд қилганлик учун жавобгарликни кучайтириш, мазкур йўналишда жамоатчилик назоратини ошириш асосий вазифалардан саналади.

Бугунги кунда, мамлакатимизда кадрлар тайёрлаш бўйича давлат сиёсатининг устувор аҳамият касб этаётганлиги, ҳар бир ҳудуднинг ижтимоий иқтисодий шароитларидан келиб чиққан ҳолда ҳамда талаб ва эҳтиёжларининг ҳисобга олинмаганлиги натижасида баъзи ҳудуларда педагог кадрларга бўлган талабнинг ошганлиги ва педагог кадрларга бўлган талабнинг кўпайишига олиб келган. Педагогик таълим инновацион кластерини амалиётга тадбиқ қилиниши бу узлуксиз таълим тизимини ташкил қилувчи таълим турлари ўртасидаги узвий боғлиқликни таъминлашда катта амалий аҳамият касб этиши, уларни аниқ мақсадга йўналтирилганлиги, таълим тизимида рақобат ва назорат муҳитини шакллантиришга қаратилганлиги, педагогик соҳада самарали таълим тизимини яратиш масалаларининг илмий ва назарий асосланганлиги педагогик таълим инновацион кластерининг асосий мақсад ва вазифаларидан хисобланади.

Университетда асосан 2 йўналишда илмий тадқиқот ишлари йўлга қўйилган бўлиб, илмий тадқиқот ишлари ва педагогик таълим инновацион кластери бўйича илмий фаолият олиб борилади. “Замонавий биологиянинг долзарб масалалари”га бағишланган конференциянинг асосий мақсади - биология фанларини ўқитишда замонавий инновацион педагогик технологиялардан фойдаланган ҳолда самарали ва сифатли таълим тизимини амалиётга тадбиқ этиш, биология фани бўйича назарий ҳамда амалий тадқиқотларни ривожлантириш ва такомиллаштириш, биологик хилма-хилликни асраш, ўсимликлар ва ҳайвонот дунёси генофондини муҳофаза қилиш; ўсимликлар ва ҳайвонларнинг янги нав ва зотларини яратишда замонавий геномика, протеомика, генетика ва селекция, молекуляр биология, биокимё ютуқларидан фойдаланиш масалалари; экологик тоза маҳсулотлар етиштиришда замонавий биотехнология ютуқларидан фойдаланиш; микробиология ва вирусологиянинг долзарб масалалари ҳамда атроф-муҳит муҳофазасида микроорганизмларнинг роли; ўқитишда фан-таълим интеграцияси ва педагогик технологияларни жорий этишнинг долзарб муаммолари ҳамда бу соҳаларда эришилаётган ютуқ ва камчиликлар, ўз ечимини кутаётган

долзарб муаммолар муҳокама қилинади. Ўзбекистон Республикаси ва хорижий давлатларда биология, генетика, микробиология, вирусология, биотехнология ва экология соҳаларида олиб борилаётган илмий тадқиқотларнинг назарий-методологик ҳамда амалий аҳамиятга молик натижалари муҳокама қилинади. Жаҳонда биология ва унинг йўналишлари бўйича илмий мактаблар яратган етакчи илмий тадқиқот марказлари ва олий таълим муассасалари билан халқаро ҳамкорликни мустаҳкамлаш, ўзаро илмий изланишларни ҳамкорликда бажариш бўйича келишувлар қилиш ушбу конференциянинг асосий вазифалари ҳисобланади.

Маълумки, бугунги кунда ер юзида рўй бераётган глобал иқлим ўзгаришлари, биологик хилма-хилликнинг камайиб бораётганлиги замонавий биология фани олдида турган энг долзарб муаммолардан биридир. Мустақиллик йилларида Ўзбекистон барқарор ривожланиши учун биологик хилма-хилликни сақлаб қолишнинг ўта муҳимлига алоҳида аҳамият берилгани ҳолда, бир қатор халқаро ҳуқуқий ҳужжатларга, шу жумладан 1995 йилда “Биологик хилма-хиллик тўғрисидаги Конвенция”га қўшилди ва республика ҳукумати томонидан Ўзбекистон Республикасида Биологик хилма-хилликни сақлаб қолиш бўйича “Миллий стратегия ва Ҳаракатлар режаси” тасдиқланди. Мазкур ҳужжатга асосан мамлакат умумий ер майдонининг 10 фоизини муҳофаза этиладиган табиий ҳудудлар тоифасига киритиш режалаштирилган.

Бу борада ҳукуматимиз томонидан қабул қилинган Биологик хилма-хилликни сақлаб қолиш бўйича “Миллий стратегия ва Ҳаракатлар режаси”да муҳофаза этиладиган табиий ҳудудлар тизимини янгидан ташкил этиш ва мавжудларини кенгайтириш, бундай ҳудудларда фаолият юритишнинг иқтисодий механизмларини халқаро амалиётдан келиб чиққан ҳолда олиб бориш, биохилма-хилликни муҳофаза қилиш ва унга зиён етказмасдан фойдаланишда кенг жамоатчиликнинг иштирокини таъминлаш, тарғибот-ташвиқот ишларини олиб бориш каби устувор вазифалар кўрсатиб ўтилган.

Чирчиқ давлат педагогика
университети ректори,
к.ф.д., проф. Г.И. Мухамедов

СОХРАНЕНИЕ БИОРАЗНООБРАЗИЯ – ОДНА ИЗ САМЫХ АКТУАЛЬНЫХ ПРОБЛЕМ, СТОЯЩИХ ПЕРЕД ЧЕЛОВЕЧЕСТВОМ И ОЖИДАЮЩИХ СВОЕГО РЕШЕНИЯ

Рамазонов Б.Р.
Чирчикский государственный педагогический университет, Чирчик, Узбекистан, город Чирчик, улица Амира Темура 104. Тел.: +998909721574
baxtiyorr254@gmail.com

Одной из наиболее актуальных задач, стоящих сегодня перед мировыми учеными, является предотвращение очень сложных экологических проблем, а также кризиса планеты земля и обеспечение его реализации. В своем выступлении 22 мая – в Международный день биоразнообразия – Генеральный секретарь ООН Антониу Гутерриш заявил, что «целые экосистемы исчезают на наших глазах, флора и фауна находятся на грани исчезновения, водно-болотные угодья высыхают, а пустынные территории расширяются». Ежегодно теряется 10 миллионов гектаров лесов, океаны переполнены пластиковыми отходами и окисляются, поскольку в атмосфере выделяеться все больше и больше углекислого газа, который они выбрасывают в окружающую среду. При этом на охрану природы тратится меньше денег, которые ее разрушают», - сказал он. Он сказал, что природа – это источник жизни, который не только обеспечивает человечество необходимыми ресурсами, но и помогает решить многие проблемы [1, 2].

Изменение климата в настоящее время приводит к огромным трагедиям. Ежегодное повышение температуры воздуха на нашей планете-матушке, таяние ледников, неправильное распределение водных ресурсов, истощение запасов пресной воды, производство увеличивается с каждым днем, и как следствие, заводы и фабрики выпускают чрезвычайно большие количества парниковых газов в атмосферу и это накопливаеться в атмосфере, Во многих странах происходят засухи на поверхности земли, увеличивается количество насекомых в результате повышения температуры воздуха и уничтожения ими сельскохозяйственных культур, лесные пожары наносят ущерб биоразнообразию, нехватка продовольствия и предотвращения бедности, количество чистого кислорода в атмосфере уменьшается, голод, рост инфекционных заболеваний под влиянием бедности, возникновение различных стихийных бедствий остается актуальной и проблемой для человечества сегодня. В результате, наряду со страданиями человека, это влияет на флору и фауну и приводит к утрате биоразнообразия. Страдают не только люди, животные также представляют серьезную опасность для флоры и фауны. Следовательно, сегодня крайне сложная экологическая ситуация в низовьях Амударьи, вдоль острова, стала одной из проблем мирового масштаба. Основная причина этого–человеческий фактор. Высыхание Аральского моря нанесло огромный ущерб не только природе Узбекистана, здоровью людей, проживающих в этом регионе, животному и растительному миру, но и экономике страны. Сейчас уже несколько лет реализуются крупные государственные программы и проекты вместе с зарубежного сотрудничества, направленные на ликвидацию негативных последствий этой утраты. Решение проблем в этом регионе поднято на уровень государственной политики нашей страны. В прошлом году в Сенате Олий Мажлиса Республики Узбекистан был создан новый комитет–Комитет по развитию региона Аральского региона. Основная цель этого комитета–усиление парламентского участия и контроля в развитии региона Приаральского региона [3, 4].

Наш Президент выдвинул ряд инициатив, связанных с развитием региона Аральского региона. Утверждена Государственная программа развития региона Приаралья на 2017-2021 годы, направленная на улучшение условий жизни и качества населения региона Приаральского региона. Для региона Аральского моря был создан Целевой фонд Многостороннего партнерства ООН по человеческой безопасности. Международный инновационный центр «Приаралья» создан при Президенте Республики Узбекистан. На состоявшейся 23 сентября прошлого года 75-й сессии Генеральной Ассамблеи ООН Шавкат Мирзиёев в своем выступлении остановился на глобальном изменении климата и проблеме Арала. Он отметил, что по последним данным общая площадь лесных насаждений на сухом дне Аральского моря достигла 1,2 миллиона гектаров, реализовано 67 крупных проектов на общую сумму 800 миллионов долларов. Представители зарубежного сообщества приветствовали единогласное одобрение Генеральной Ассамблеей ООН 18 мая т.г. инициативы Президента Республики Узбекистан об объявлении Аральского региона зоной экологических инноваций и технологий [1, 2].

Инициатива, выдвинутая главой нашего государства, находит широкую поддержку всех министерств и ведомств и реализуется на практике. В частности, 21 мая текущего года Комитет по развитию региона Аральского залива Сената Олий Мажлиса Республики Узбекистан, Министерства туризма и спорта, Госкомлесхоза, Министерства культуры МВД совместно с регионом Аральского залива оказало помощь населению, пострадавшему от Аральской трагедии.Караван отправился в путь. В частности, при строительстве «зеленых покровов» - защитных лесов для солёных песков, поднимающихся с осущённого дна Аральского моря, лесники и жители Мойнакского района заготавливали семена саксаула, а также семена тростника, черкесов, тамарикса и другие пустынноустойчивые растения. Государственный комитет лесного хозяйства Республики Узбекистан направил семена в Мойнакский район Республики Каракалпакстан в целях поддержки создания лесных насаждений в Приаральком регионе, а также привлечения внимания широкой общественности к решению неотложных проблем, проблемы окружающей среды [3,4].

В концепции развития лесной системы Республики Узбекистан до 2030 года особое значение придается созданию лесных насаждений в целях борьбы с опустыниванием и предотвращения опустынивания региона Приаралья. Также в сроки, указанные в Концепции, «будут разработаны государственные программы развития лесонасаждений в целях борьбы с опустыниванием, которые предусматривают следующее:

1) в пустынных районах, в том числе на осущённом дне Аральского моря:

площади, пригодные для лесонасаждения, определяются с помощью карты типов почв;

будет разработана программа по созданию защитных лесных насаждений из деревьев, подходящих для территорий с различными типами почв;

2) на орошаемых и засушливых землях:

будут разработаны методические рекомендации по созданию лесных насаждений и проектированию агротехнических мероприятий по борьбе с эрозией;

заложены лесные насаждения декоративных и плодовых деревьев;

3) для увеличения древесных насаждений:

вокруг существующей инфраструктуры - построенных дорог, каналов, ирригационных систем создаются соответствующие древесные рощи;

Будут проверены существующие деревья по периметру сельскохозяйственных земель и определен минимальный стандарт деревьев по периметру полей;

осуществляется восстановление или рекультивация земель, поврежденных в процессе добычи полезных ископаемых или в других случаях при посадке леса;

Будет разработан и реализован план создания зеленых зон вокруг городов, поселков и объектов народного хозяйства, расположенных в сложных экологических условиях».

В связи с реализацией данной Концепции Государственным комитетом лесного хозяйства принято решение о создании в 2021 году «Зеленого покрова» на площади 375 тысяч гектаров в засушливых районах Аральского моря в Мойнокском районе Республики Каракалпакстан. На практике к настоящему времени засеяно 446 000 га, из них 437 000 засажено семенами пустынных растений с помощью авиации и техники. Всего лесозаготовителями и местными жителями заготовлено 1 511 000 тонн семян пустынных растений. Для реализации данных лесомелиоративных мероприятий было задействовано 700 рабочих, 600 единиц техники и механизмов, в том числе 4 самолета АН-2 и дельтаплан [3,4].

По данным, за один день на земле сгорает 9 миллиардов литров нефтепродуктов. В результате количество углекислого газа в воздухе ежегодно увеличивается на 30%. В то же время выброс парниковых газов в атмосферу является одним из факторов, вызывающих изменение климата.

Негативное влияние на климат оказывают и лесные пожары, в результате недавних лесных пожаров в Австралии полностью исчез целый вид животных. Pseudomys fumeus, обитающий в Австралии, является первым полностью исчезнувшим видом мышей.



Рисунок №1. Мышь «Pseudomys fumeus».

По данным пресс-службы Университета Чарльза Стерта, грызуны погибли из-за заболевания легких, которое возникло на фоне вдыхания дыма горящих дров. Через несколько дней они начали гибнуть из за углекислога газа. В результате пожаров погибло 1,25 миллиарда диких животных. Тот факт, что дым от лесных пожаров в Австралии в 2019-2020 годах достиг южноамериканского региона, показывает, насколько сильно это бедствие нанесло ущерб природе.

В заключение можно сказать, что все усилия, прилагаемые в Приаралье, направлены не на возвращение Арала, а на снижение негативных последствий экологического кризиса, борьбу с опустыниванием, создание условий для населения, проживающего на этой территории. и предотвращение оползней песка и соли, поднимающихся из высохшего моря. Поддержание влажности, предотвращение оползней, улучшение и стабилизация экологической ситуации путем создания лесов на высохшем дне Аральского моря и превращение территории, таким образом, в зону экологических инноваций и технологий приведет к дальнейшему социальному, политическому и экономическому развитию нашей страны. страна.вымершим видом [1,2].

Священный долг каждого из нас–беречь родину, уважать ее природные и духовные богатства, беречь нашу планету земля, оставлять все ее богатства -природу, флору и фауну, ясное небо будущим поколениям–всем, кто на нем живет. Долг каждого из нас–донести до молодых поколений, что это священный долг нации.

Использованная литература

1. Ramazonov, B.R., Mutalov, K.A., Fayziev, V.B., Koraev, S.B. Morphogenetic characteristics and biological activity of Takyr and meadow soils of the Republic of Karakalpakstan (On the example of soils of chimbay district) . Journal of Critical Reviews, 2020, 7(5), pp. 243–249.

2. Ramazonov, B.R. Soil cover of the aral sea region and change of soil properties under the influence of desertification (On the example of soils of the Karakalpakstan region) Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 2020, 12 (6 Special Issue), pp. 620–631.

3. Mutalov K.A., Ramazonov B.R., Zokirov D.U. "Janubiy Orolbo'yi tabiiy resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish" Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. NUKUS. 2020 163-166. 5 b

4. Mutalov K.A., Ramazonov B.R., // Псаммофильная растительность Южного Кызылкума // Нөкис мәмлекетлик педагогикалық институты II-халық аралық илимий-теориялық конференция материаллары топламы 19 май, 2021 ж. I – бөлим 5 бет.

O'ZBEKISTON SHAROITIDA SHAMPINYON QO'ZIQORIN YETISHTIRISHNING INTENSIV TEXNOLOGIYASI

Abduraimova X.I., Raximov A.K.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, O'zbekiston, Toshkent viloyati, 100074,
A.Temur ko'chasi, 104.
E-mail: abduraimova_85@inbox.ru

Shampinyon mahsuloti yetishtirishning tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, birinchi marta shampinyon yetishtirish XVII asrda Italiyada, undan keyin Fransiyada yo'lga qo yilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, shampinyon yetishtirish qariyib 400 yildan beri davom etyapti. Bu XVII-XIX asrlarda Fransiyada keng miqiyosda rivojlandi. XVIII asrga kelib Fransiyadan Angliyaga, Germaniyaga va boshqa yevropaning ko'pgina davlatlariga, shu bilan birga AQSh ga tarqaldi. XVIII asrning o'rtalariga kelib Rossiyada yetishtirish yo'lga qo'yildi. Hozirgi kunda Fransiya, Angiliya, AQSh, Gollandiya, Italiya, Germaniya va boshqa davlatlarida, Yaponiya, Kitay va Koreya kabi rivojlangan davlatlarda shampinyon yetishtirish keng ko'lamda yo'lga qo'yilgan [1,2].

BMT ning butunjahon savdo-sotiq tashkilotining ma'lumotiga ko'ra qo'ziqorin yetishtirish bo'yicha yetakchi davlatlar yiliga Kitay-511, AQSh-355, Gollandiya-200, Frantsiya-160, Buyuk Britaniya-143, Polsha-100, Yaponiya-76, Ispaniya-72, Italiya-64,5, Germaniya-59, Kanada-55, Irlandiya-50 ming tonna yetishtirmoqda [3].

Materiallar va uslublar. Normal holatdagi odamga sog'lom turmush tarzi uchun bir sutkada 3000 kkal atrofida energiya zarur, bu 330 gr o'simlik yog'ida, yoki 750 gr shakarda bo'ladi. Lekin organizmga kerakli energiyadan tashqari, organizm uchun qurilish materiali bo'lgan oqsil, yog', uglevod va vitaminlar ham kerak. Yer yuzida yiliiga inson organizmi uchun zarur oqsil miqdori yetishmovchiligi 150 mln tonnani tashkil etadi. Bu muammoni yechish uchun dengiz mahsulotlari bilan bir qatorda qo'ziqorin yetishtirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari. Hisob-kitoblarga ko'ra har yili yer yuzida 50 dan 100 mlrd tonnagacha organik moddalar sintez bo'ladi, buning katta qismini o'simliklar olami tashkil etarkan. Hozirgi kunda butun yer yuzi aholisi oldida ikkita katta muammo; oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish va chiqindilarni utilizatsiya qilishdan iborat. Bu muammoni qo'ziqorin mahsuloti yetishtirish orqali bartaraf etishga erishiladi. Bunda qishloq–xo'jalik mahsulotlari chiqindilarini ikkilamchi xom-ashyo sifatida foydalanib oqsilga boy oziq-ovqat mahsuloti yetishtiriladi.

Shampinyon mahsuloti yer yuzida eng ko'p yetishtiriladigan va iste'mol qilinadigan qo'ziqorin mahsuloti bo'lib, u nafaqat oziq-ovqat, balki dorivorlik xususiyatiga ham ega. 1985-1988 yillarda olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida shampinyon qo'ziqorini tarkibida xolesterenli tiqimalarni parchalovchi va saratonga qarshi moddalar borligi aniqlangan.

Shu sababli bu mahsulotni iste'mol qilib turish yurak-qon tomir va alkagolik kasalliklarga chalinish ehtimolligini kamaytiradi. Qo'ziqorinning adsorbtsiya xususiyati borligi uchun inson tanasidan og'ir metallarni va radioaktiv modalarni chiqarib tashlaydi, fermentativ xususiyati kuchli bo'lgani uchun, hamda Mg^{2+} mikroelementini saqlashi tufayli insonlarda qarish jarayonini sekinlashtiradi. Hozirgi kunda dunyoning 80 dan ortiq davlatida intensiv yangi texnalogiyalar asosida shampinon qo'ziqorini yetishtirilmoqda. Respublikamizda shampinyon mahsuloti 1995-2000 yillardan boshlab yetishtirila boshlandi. Bizning intensiv qo'ziqorinchilikda yangi innovatsion texnologiyani qo'llagan holda, ozuqa substratini tayyorlashda hech qanday qo'shimcha binolarsiz va gaz hamda elektr energiyasiz ozuqa substrati tayyorlandi. Bu texnologiyamizga asosan boshqa bakteriya va zamburug'larni foydali yo'naltirish orqali ozuqa substratini tayyorlashga erishildi. Bunda 3 tur bakteriya va zamburug'lar ishtirok etadi [4].

1. Tuban bakteriyalar va zamburug'lar. Bunda shu bakteriya va zamburuug'larni ko'payib yashashiga xom-ashyoga kerakli namlik beriladi. Bunda harorat 0-5 0S atrofyida bo'lishi kerak.
2. Keyingi bosqichda ikkinchi tur zamburug'lari va bakteriyalarni mezofil bakteriyalar yashashi uchun qo'shimcha ozuqa organik va mineral moddalar qo'shiladi. Bunda substrat tempraturasi 45^0C gacha bo'ladi.
3. Issiqsevar zamburug' va bakteriyalar (termofal) bakteriyalar (aktinomitsetlar va zamburug'lar) bunda ozuqa substratida ya'ni kompostda xarorat 45^0C dan 55^0C gacha bo'ladi.

Kompostni ya'ni substratini tayyorlashda boshqalar buni yopiq binolarda qo'shimcha gaz va elektr energiyasidan foydalanib amalga oshirishadi. Qo'ziqorin uchun ozuqa substrati tayyorlash jarayoni aerob jarayoni, ya'ni kislorodli muhit bo'lgani uchun boshqa tayyorlovchilar energiya - gaz yoki elektr toki yetishmasligi tanqisligi sababli ko'p hollarda ozuqa substrati qo'ziqorin unib yetishishi uchun to'liq shakllanmaydi va natijada mo'ljalda kutilgan natijaga erishilmaydi. Buning yangi innovatsion texnologiyamizda ozuqa substrati tayyorlash jarayoni ochiq joyda o'tkaziladi va jarayonga kerakli namlik va qo'shimcha mineral o'g'itlar uchta tur bakteriya va zamburug'larning rivojlanishiga qarab berib boriladi. Keyingi holatda kompost - ozuqa substrati joyida - kompost tayyorlangan joyda qo'ziqorin ekish uchun tayyorlangan maxsus yashiklarga joylanadi va olib kelinib mahsulot yetishtirish uchun maxsus jixozlangan binoga yashiklar taxlanadi [5].

Bizning texnologiyada yashiklar kirgiziladi va oxirida yashiklar bilan birga chiqariladi. Bu texnologiya asosida xonaga bir yilda mahalliy urug' - mitseliy yordamida 4-6 martagacha ekib olish imkoni bo'ladi. Boshqalar yetishtirayotgan texnologiyada esa ya'ni stellaj qilinganda 2-3 marta ekib olishga erishiladi. Ko'pchilik 2 marta ekib oladi. Biz bu texnologiyani kelgusida yosh talaba magistrlarimizga ham umumiy, ham amaliy tomondan ilmiy o'quv tajriba sifatida o'rgatib boramiz. Bunda talabalarimiz o'zlari o'qib, o'rganib ham ishlab o'z malakalarini oshirib borishadi. Bunda talabalar qo'shimcha yetishtirib sotilgan maxsulotdan oylik maoshlariga ham ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Portabella" Fresh Mushrooms. Mushroom Council 21-sentyabr 2023-yil.
2. Морозов А.И. Выращивание шампиньонов. — М.: ООО «Издательство АСТ»; Донецк: «Сталкер», 2001. 48 с.
3. Cooke MC. Handbook of British Fungi. London: Macmillan and Co.,187-138 p.
4. Ячевский А. А. Шампиньон // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона: в 86 т. (82 т. и 4 доп.).—СПб., 1890—1907.
5. Kirk P. M., Cannon P. F. et al. Ainsworth & Bisby's Dictionary of the Fungi. - CAB International, 2008. -P. 13-14 p.

CHIRCHIQ SHAHRI QABRISTON HUDUDLARIDA TARQALGAN KAUFMAN LOLASI HAQIDA MA'LUMOT VA UNING TARQALISH HUDUDLARI

[1]Absamatov T.N., [2]Tangriyev T.Ch.
[1]ChDPU biologiya kafedrasi o'qituvchisi t.absamatov@cspi.uz
[2]ChDPU biologiya kafedrasi o'qituvchisi t.tangriyev@cspi.uz


Noyob o'simliklarning tarqalish hududlarini aniqlash va ularni muhofazaga olish uchun mustaqillikning dastlabki yillaridanoq biologik xilma-xillikni saqlab qolishga, xususan o'simliklar olamini himoya qilish va ulardan oqilona foydalanish borasida qator islohotlar amalga oshirildi. Bu borada kamyob va yo'qolib borayotgan o'simlik turlari alohida o'rin egallaydi. Aynan biologik xilma xillikni saqlab qolish konsepsiyada kamyob o'simliklarni saqlab qolishga alohida urg'u berilgan. Bu kabi belgilangan vazifalarning samarasi sifatida davlatimiz tomonidan "Qizil kitob" ning bir necha nashrlari chop etila boshlandi.

Materiallar va usullar. Bioxilma-xillikning global baholash (UNEP) ma'lumotlariga ko'ra bugungi kunda turli omillar ta'siri natijasida 30 000 dan ortiq o'simlik va hayvon turlari yo'qolib ketish xavfi ostida turibdi, oxirgi 400 yil ichida 654 o'simlik turlari yo'qolib ketgan [2]. Xususan dastlabki "Qizil kitob" 1984 yilda chop etilgan bo'lsa, navbatdagi nashrlari 1998, 2006, 2009, 2019 yillarda chop etildi. Shu nuqtayi-nazardan Chirchiq shahar markaziy qabristonidan kichik populyatsiyalari topilgan targ'il lola tog'larning tog' oldi, past va o'rta qismlarida, daraxtzor va butazorlar orasida, tog' daryo vohalarida, eriyotgan qor etaklarida, qoyalar yoriqlarida, soz va oshloq yonbag'irlarda yakka-yakka yoki to'p bo'lib o'sadi.

Tadqiqot natijalari. G'arbiy Tyan-Shan endem turi (O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston). O'zbekistona hududida Toshkent va Namangan viloyatlarida (Ugom, Piskom, Qorjontov, Chotqol, Qurama tizmalarida: Ugom, Piskom, Chotqol, Chirchiq, Ohangaron, Chadaqsoy daryolari havzalarida) tarqalgan.

O'simlikning ilmiy nomi	O'simlikning rus tilidagi nomi	O'simlikning o'zbek tilidagi nomi
Tulipa kaufmanniana Regel	Tyulpan Kaufmana	Kaufman lolasi, targ'il lola
Maqomi	O'zR Qizil Kitobi, 3 toifa	

Bo'yi 20–50 sm ko'p yillik piyozli o't. Piyozi tuxumsimon, cho'ziq yoki sholg'omsimon, diametri 6 sm gacha, qobig'i to'q qo'ng'ir yoki tillarang qo'ng'ir, ichi yotiq tukli. Barglari 3–4 (ba'zan 2-5) ta, chetlari ba'zan xiyol to'lqinsimon; pastki bargi eni 2-13 sm. Guli yakka, yirik, yulduzsimon yoki kosasimon shaklda, bo'yi 11 sm gacha, qizil, sariq, och sariq, oq, sariq-qizil yoki qizil-oq rang-barang. Gulining tubi, changchi iplari va changdonlari sariq. Changdonlari changchi iplaridan 2-3 barobar uzunroq, spiralsimon o'ralgan. Ko'sagi cho'ziq, uz. 3-6(9) sm, uzun tumshuqli. Mart–aprel oylarida gullab, mevasi may–iyunda yetiladi [4].



1-rasm. Kaufman lolasi, targ'il lola.

Tadqiqotlarimiz davomida O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitob" sahifalarida tadqiqot (Chirchiq shahri) hududi florasida tarqalishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilmagan noyob turlarning yangi o'sish populyatsiyasi aniqlandi va bu turlar to'g'risidagi ma'lumotlar boyitildi. Bu esa

hududning o‘ziga xos turlar tarkibiga ega ekanligidan dalolat beradi. Olingan ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobning keyingi nashrilarida foylaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dietmar B. (2011): Flora of old cemeteries in Central Tunisia. – http://www.ruderal-vegetation.de.
2. Tojibaev K.Sh., Beshko N.Yu. Reassessment of diversity and analysis of distribution in Tulipa (Liliaceae) in Uzbekistan // Nordic Journal of Botany. Vol. 33 (2015). – P. 324-334.
3. Батошов А.Р. Жанубий-шарқий Қизилқум қолдиқ тоғлари флорасининг электрон маълумотлар базаси 2016. (Microsoft Access, 2007).
4. Эсанкулов А.С. Флора Зааминского государственного заповедника: дис. .канд. биол. наук. – Тошкент, 2012. – 69 с.

EKOLOGIYA BUZILISHINING INSON SALOMATLIGIGA TA’SIRI

[1]Ashirbayeva A. E., [2]Ramazonov B. R.

[1]Chirchiq davlat pedagogika Universiteti, Biologiya kafedrasi 2-bosqich talabasi

[2]Chirchiq davlat pedagogika Universiteti, Biologiya kafedrasi dotsenti

Inson hayotini tabiatsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi, chunki inson tabiatning ajralmas qismi hisoblanadi. Tabiat, ona zamin, o‘rmonlar, dunyo okeani, dengizlar, daryolar va horazolar insonlarning barcha talablarini qondiruvchi manbadir. Tabiat o‘zining har bir jabhasida inson uchun zarur bo‘lgan minglab unsurlarni mujassam etgan. Inson yashashi uchun zarur bo‘lgan barcha narsalar-oziq-ovqat, qurilish materiallari, kiyimlar, va boshqa kop narsalarni tabiatdan oladi. Ana shunday go‘zal tabiatimiz bugungi kunga kelib qay ahvolga tushmoqda? Buning qanday oldini olishimiz mumkun? Bunga o‘xshash savollar bugungi kunning eng dolzarb global mavzusiga aylanmoqda. Yuqorida sanab o‘tilgan salbiy oqibatlarning asosiy sababchisi – bu inson omilidir. Afsuski inson tabiatga misli ko‘rilmagan miqdorda ta’sir korsatadi. Inson mehnat faoliyati orqali tasir qilishini hech bir narsa bilan taqqoslab bolmaydi. Hozirgi kunga kelib dunyo aholisi soni 8 mlrdga yetib bormoqda, albatta bu tabiiy resurslardan ko‘proq foydalanishga olib kelmoqda. Tabiiy resurslarning zahirasi kundan-kunga, yildan yilga kamayib bormoqda, neft, ko‘mir, gaz kabi tabiiy resurslar tiklanmaydigan resurslar hisoblanadi. Inson tabiat unsurlaridan ya’ni nematlaridan tog‘ridan tog‘ri noto‘g‘ri yo‘l bilan foydalanishi orqali tabiat muvozanati buzilganligi, va bu jiddiy oqibatlarga olib kelganligi bizga ma‘lum. Dunyo aholisining soni ortishi natijasida atrof-muhitga tashlanadigan chiqindilar miqdori ham yildan yilga ortmoqda. Ona tabiatimizga o‘z ta’sirini ko‘rsatadigan sanoat chiqindilaridan himoyalash davr talabi bo‘lib qolmoqda, sababi ifloslangan tabbiy muhit nafaqat insonlar salomatligiga, balki tabiatimizga ham salbiy tasir ko‘rsatadi. Sanoat korxonalari chiqindilarini kamaytirish uchun avvanbor hozirgi zamon talabiga mos keladigan ilgor texnologiyalardan foydalanilgan holda chiqindisiz jarayonlaridan foydalanishimiz lozim.

Bundan asosiy maqsad-bu tabiiy resurslarga tejamkorona munosabat va atrof-muhitga salbiy tasirni kamaytirish, qolaversa inson salomatligini tiklash [1,2,3].

Materiallar va usullar. Biz suv, tuproq, havoning ifloslanishini, ekotizimlarning yoq qilinishini, o‘rmonlarning ayovsiz kesilishi va bu joylarning cho‘lga aylanib borayotganligi, aholi yashash joylarning ko‘payib borayotgfnligi va boshqalarini ko‘rishimiz mumkun. Bularning barchasi kasalliklarning ko‘payishiga , biologik xilma-xillikning yo‘qolishiga hamda o‘simlik va hayvonot dunyosida ham, odamlarda ham sog‘liq bilan bog‘liq muammolariga muammolariga olib keladi. Buyuk mutafakkir bobomiz Abu Ali Ibn Sinoning hozirda ekologiya deb yuritilyotgan atrof-muhitning deyarli barcha omillari, ularga insonning, jonzotlarning ta’siri va nihoyat, bu omillarning inson va jonzotlarga aks ta’siri togrisidagi mashhur iboralarining keltirishning o‘zi kifoya. “Chang bo‘lmaganida inson 100 yil yashagan bo‘lar edi’’ [3,4].

Bugungi kunga kelib jahon statistik malumotlariga ko‘ra, aholining 10% qarilikdan, 20% baxtsiz hodisalar va changdan, 70% esa kasalliklardan o‘lmoqda, shuningdek, bizning

sog‘ligimizning atigi 10%i tibbiyotga, qolgan 90% esa o‘zimizga va atrof-muhit hodisalariga bog‘liq. Hozirgi kunga kelib ekologik muammolar inson salomatligiga jiddiy tahdid solmoqda. Malumotlarga ko‘ra, sayyoramizda ro‘y berayotgan iqlim o‘zgarishlari yilliga uch yuz ming insonning umriga zomin bo‘lmoqda. Orol bo‘yidagi o‘ta og‘ir ekologik vaziyat, Tojikiston alyuminiy zavodidan chiqayotgan zaharli gaz va chiqindilarning Surxondaryo viloyati Denov va Sarosiyo tumanlarida istiqomat qiluvchi aholi salomatligiga salbiy ta’siri, buning ta’siri natijasida kelib chiqayotgan tabiiy kasalliklar, cho‘llanish, sho‘rlanish, chuchuk suv muammosi bunga yaqqjl misoldir. Bundan tashqari aholi orasida ko‘p uchraydigan allergik kasaliklarni ham misol qilib olishimiz mumkun. Ko‘plab epidimiologik kuzatuvlar atrof-muhitning kimyoviy ifloslanishi va aholining repraduktiv funksiyasining buzilishi o‘rtasidagi bevosita sabab-oqibat bog‘liqligini ko‘rsatadi. Hozirgi kunda yurtimizda sanitariya-epideomiologiya muhitni barqarorlashtirish, tabiatga salbiy ta’sirni kamaytirish, ekologiya va gigiyena tadbirlarini muntazam ravishda tashkil etish tizimi shakillanganligi inson salomatligini asrash va yuqumli kasaliklar bo‘yicha barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi [3,4].

Tirik mavjudotlarni o‘rab turgan ekologik muhit, asosan insoniyat tomonidan salbiy tomonga o‘zgartirib yuborilgani bizga sir emas, buning asosiy sababi zavod-fabrikalar, transportlar va ulardan chiqayotgan zaharli gazlar va chiqindilardir. Bu o‘zgarishlar atrof-muhitni shu darajada o‘zgartirdiki, barcha tirik mavjudotlar qatori inson salomatligiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Yer yuzini ifloslanishining eng mudhish omillaridan biri bu nurlanishdir. Uning ta’sirida inson organizmning sistemalarida jiddiy buzilishlar ya’ni o‘zgarishlar kuzatiladi. Nurlanishdan ayniqsa, homilador ayollar homilasi, o‘sishi va rivojlanish jarayonidagi bolalar imuniteti susayganligi, qariyalar va sog‘ligi zaif insonlar aziyat chekmoqda. Nurlanish inson organizmiga qon va suyaklariga turli yo‘llar bilan kirib, uning barvaqt o‘limiga sabab boladi [1,2,3,4].

Shunday qilib, sanoat korxonalari chiqindilarini kamaytirish uchun avvalambor hozirgi zamon talablariga mos keladigan ilg‘or texnologiyalardan foydalanilgan holda zararsizlantirish, chiqindisiz texnologiyadan foydalanishni keng yo‘lga qo‘yishimiz lozim. Yashil makon dasturiga koproq etibor qaratishimiz lozim, milliardlab daraxtlar ekib, ularni parvarishlashimiz, ona zaminni asrab avaylab kelajak avlod uchun ham o‘z musaffoligini saqlagan holda yetkazib berishimiz bizning burchimizdir [1,2].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni “Respublikada ko‘kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, dataxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari”to‘g‘risidagi 2021-yil 30-dekabrda PF-46 qarori.

2. Zhumaeva Sh.B. “Эколого-флористический анализ альгофлоры водных объектов Бухарской области. (2022).

3. Nazarov A. Challenges to Uzbekistan‘s secure and stable political development in the context of globalization, journal on international Social Sciense, (2021) 1(1) 26-31.

4. Mirziyoyev Sh. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti strategiyasi” O‘zbekiston Toshkent. -2-22 322-324 b.

BIOXILMA-XILLIKNI ASRASH BUGUNGI KUNDAGI DOLZARB MUAMMO

Allanazarova S.R., Tillaboyeva D.N.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, O‘zbekiston, Toshkent viloyati,
100074, A.Temur ko‘chasi 104, CHDPU
e-mail: allanazarovasabrina25062003@gmail.com, donokarshibayeva99@gmail.com

Yer yuzidagi bioxilma-xillikni asosiy vazifasi bu Yerdagi hayotni ushlab qolish – biosferani unga kiruvchi ekosistemalar orasidagi muvozanatni yaratish va ushlab qolish imkoniyatini beradi. Bioxilma-xillikga kundalik hayotimiz nuqtai nazardan qarasak biz unda bitmas-tugatmas biologik

resurslar mavjud. Biologik resurslar bizga ham ozuqa, kiyim kechak va yashashga zarur bo‘lgan boshqa hamma narsalarni beradi. Ular odamlarni ko‘pgina faoliyatlarining asosiysi hisoblanadi, bu dunyo iqtisodining asosi hisoblanadi. Ekosistemalarda muhim rol o‘ynaydigan mikroorganimzlar ozuqa mahsulatlarini ishlab chiqishda muhim rol o‘ynaydi. Hozirgi zamon meditsinasi biologik resurslarga anchagina ishonch bilan qaraydi. Qanchalik bioxilma-xillik katta bo‘lsa bunday imkoniyat meditsinada ham katta bo‘ladi. Yovvoyi o‘simliklar tarkibida bo‘lgan 40% ga yaqin narkotiklar meditsinada hozirgi kunda ishlatiladi. Qishloq xo‘jaligida zararkunandalarga qarshi kurashishda bioxilma-xillik ancha katta ahamiyatga ega. Bugungi kunda qishloq xo‘jaligidagi genetik xilma-xillik mavjudligi tufayli madaniy o‘simliklarga talab ancha katta. Bu ozuqani ko‘paytirish sifatini oshirish, yangi navlarni yaratish va hokazolar.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqotni olib borishda adabiyotlarda keltirilgan ma’lumotlardan foydalanildi. O‘zbekistonda bioxilma-xillikni saqlash bo‘yicha 1992-yilda BMTning Biologik xilma-xillik to‘g‘risidagi Konventsiyasi qabul qilindi. O‘sha paytda ushbu hujjat 156 ta davlat tomonidan imzolanib, 1993-yildan boshlab xalqaro hujjat sifatida kuchga kirdi. Unda biologik xilma-xillikni saqlash, uning komponentlariga ziyon yetkazmasdan foydalanish kabi muhim vazifalar belgilab berildi.Konvensiyaning asosiy maqsadlari:

- yerning biologik resurslari ham yerdagi, ham suvdagi jumladan o‘simliklar, hayvonlar va mikroorganizmlar xilma-xilligini saqlash;

- mamlakatlaming o‘z biologik resurslaridan qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida va resurslarga, na bu tarmoqlarga zarar keltirmaydiga usullar bilan foydalanishini ta'minlash;

- genetik resurslardan foydalanish imkoniyatlari va shu asosda olinadigan foydalami adolatli va teng taqsimlanishini rag‘batlantirish [1].

Zero, flora va fauna boyliklari har bir davlatning hayotiy resursidir. Shunday ekan, bu ne’matni muhofaza qilish, ulardan oqilona foydalanish, kelajak avlodga bekamu ko‘st yetkazish rivojlanishga erishishning mutlaq zaruratidir. Mamlakatimizda ham tabiat muhofazasi, bioxilma-xillikni asrab- avaylashga katta e’tibor qaratib kelinayapti. Buning uchun zarur tashkiliy-huquqiy poydevor yaratilgan. Konstitutsiyamizda yer, yer osti boyliklari, Suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylik ekani, ulardan oqilona foydalanish zarurligi hamda ular davlat muhofazasida ekanligi alohida belgilab qo‘yildi.

“Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi, “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi, “O‘simliklar dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi, “Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi, “Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilindi. Ayni chog‘da O‘zbekiston bir qator xalqaro hujjatlar bilan birga, BMTning Biologik xilma-xillik to‘g‘risidagi konventsiyasiga qo‘shildi.

Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 1-apreldagi tegishli qaroriga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlab qolish bo‘yicha Milliy strategiya va Harakatlar rejasi ishlab chiqilib, ustuvor vazifalar belgilab olindi. Undagi muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimini yangidan tashkil qilish va mavjudlarini kengaytirish, bunday hududlarda faoliyat yuritishning iqtisodiy mexanizmlarini xalqaro amaliyotdan kelib chiqqan holda olib borish, bioxilma-xillikni muhofaza etish va unga ziyon yetkazmasdan foydalanish ishida keng jamoatchilikning ishtirokini ta’minlash, targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish kabi mexanizmlarni rivojlantirish bo‘yicha zarur chora-tadbirlar shular jumlasidandir [1,3].

Bugungi kunda, biologik turlarning 1,4 mln.ga yaqini tavsiflangan, ayrim taxminlarga ko‘ra, mazkur turlar 8 mln. gacha ham bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, fanda noma’lum bo‘lgan yana ko‘plab turlar okean qa’rida, baland tog‘lar, o‘tib bo‘lmaydigan ekvatorial o‘rmonlar va sayyoramizning yetib borish qiyin bo‘lgan boshqa joylarida yashaydi. Hayot ko‘rinishlarining mazkur barcha xilma-xilligi hayot uchun katta boylikni o‘zida aks ettirib, ekologik, genetik, ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy, ma’rifiy, madaniy, rekreatsion va estetik ahamiyatga ega. Hozirgi kundagi biologik xilma-xillikning holati jiddiy xavfni yuzaga keltirmoqda. “Mutaxassislarning fikriga ko‘ra,

bioxilma-xillikning yo‘qolishi tabiiy qirilish darajasidan bir necha barobar oshmoqda”, - deya ta’kidladi BMT tizimining O‘zbekistondagi koordinatori Stefan Prisner. – “Jahon hamjamiyati aniq sonlarni ayta olmaydi, chunki umuman sayyorada qancha turlarning borligini bilmaymiz. Shu sababli biz qancha turlar yo‘qolib borayotganini ayta olmaymiz. Insoniyat yiliga, Yer tiklashi mumkin bo‘lgan resurslarganisbatan 40 % dan ko‘p tabiiy resurslarni iste’mol qilmoqda. O‘zbekiston boy va noyob bioxilma-xilikka ega. O‘zbekiston florasini 650 tur va 115 oilani namoyish etuvchi 4800 dan ortiq turlar tashkil etadi. Turlarning boyligi va xilma-xilligi bilan shuningdek, O‘zbekistonning hayvonot olami ham ajralib turadi. Hayvonot dunyosining umurtqasiz va umurtqali turlari 15615 ni tashkil etadi [4].

Bugungi kunda O‘zbekistonning muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimiga sakkizta davlat qo‘riqxonasi, bitta biosfera rezervati, ikkita milliy bog‘ va o‘n ikkita davlat buyurtmaxonalari, shuningdek, hayvonlarning noyob turlarini ko‘paytirish bo‘yicha Respublika “Jayron” Ekomarkazi kiradi. Shu bilan birga, tobora o‘sib borayotgan insoniyat faoliyati natijasida tabiiy ekotizimlarga talofat yetkazilmoqdaki, pirovardida ekotizimlarning suv hamda suv oldilarini namoyish etuvchi hayvonlarning 87 turi, cho‘l ekotizimlari hayvonlarining 46 turi, tog‘ ekotizimlari hayvonlarining 43 turi xavf ostidadir. Sayyoramizdagi o‘simliklar va hayvon resurslari nihoyatda katta va rang-barang, lekin bu resurslar ulardan faqat oqilona foydalanilgan vaqtdagina hamda ularning tiklanish sharoiti ta'minlangandagina kishilar jamiyati talablarini qondira oladi [1,2].

Bioxilma-xillikni kamayishini oldini olish uchun tabiatda ro‘y berayotgan jarayonlar to‘g‘risida aniq ma’lumotlarga ega bo‘lish zarur. Hammadan oldin bio xilma-xillikni tahdidi xarakteri va masshtabigi baholash lozim, uni kamayishiga sabab bo‘layatgan potentsial omillarni aniqlash. Katta etiborni avalom bor konkret ekosistemalarni ishlash jarayonini tadqiqot qilish kerak, ulardagi turlarni o‘zaro munosibatini va biotik uyushma strukturasini aniqlash zarur. Hayvonlar va o‘simliklar turlari, muhim biotoplar, ekosistemalar va landshaftlar haqida berilganlarni analizi va umumlashtirish maqsadida informatsion sistemalar yaratiladi, qaysiiki aniq va zudlikda bio xilma-xillikni saqlash muammolarini yechish mumkin. GIS lardan foydalanish juda ham effektli hisoblanadi, chunki bunday sistemalar ma’lum kriteriyalar asosida ekasistema holatini aniq baholashi mumkin. Har bir bizni faoliyatimizni qanchalik asosli ekanligi to‘g‘risida, o‘sha joyni ekologik holatini hisobga olgan holda, bundan tashqari tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalar ishlab chiqishda qulay imkoniyat yaratadi. Berilganlar bazasini tez-tez yangilash ham katta imkoniyatlarni yaratadi. Misol uchun Gis Master dasturi bir vaqtni o‘zida qidirish va obyektlarni tanlash bo‘yicha joy xaritalarini yoki ularni ma’lum bir qismini chop qilishi mumkin, ularni redaktirirlash mumkin, har xil ko‘rinishdagi grafik informatsiyalarni kiritish mumkin qulay ko‘rinishda va masshtabda. Bundan tashqari ekologik informatsion sistemalar (EIS) mavjud, bular GISlarga nisbatan aniqligi past bo‘lishligiga qaramasdan boshqa ko‘pgina tomonlari bo‘yicha qulayliklarga ega: resurslardan foydalanishni arzonligi, foydalanishi bo‘yicha oddiy va hokazo qulayliklarga ega [1,2,3,4].

Следует особо отметить положительную корреляцию таких показателей, как «общая сухая биомасса», «сумма хлорофиллов», «видимый фотосинтез», содержание белка и крахмала в зерне в контрольном варианте со всеми изученными показателями. Однако, выявлена низкая отрицательная зависимость между интенсивностью транспирации и содержанием хлорофилла, массой колоса, массой зерна. Между видимым фотосинтезом и интенсивностью транспирации, сухой биомассой и суммой хлорофиллов коэффициент корреляции отрицательный. Между сухой биомассой и содержанием белка и крахмала также корреляция отрицательная, а по всем остальным показателям в целом положительная.

В фазе колошения у сорта Президент коэффициент корреляции между интенсивностью транспирации, массой колоса, содержанием хлорофилла и видимым фотосинтезом отрицательный, а по массе зерна, сумме хлорофиллов, содержанию белка и крахмала в разной степени положительная корреляция. По массе зерна все показатели имеют положительную корреляцию.

В опытном варианте интенсивность транспирации и показатель «масса колоса» имеют положительную корреляцию со всеми показателями. По массе зерна имеется отрицательная корреляция с сухой биомассой и суммой хлорофиллов, а видимый фотосинтез - с содержанием крахмала.

У сорта Президент в фазе цветения в варианте контроль коэффициент корреляции между показателями «интенсивность транспирации», «сухая масса», «сумма хлорофиллов» и «видимый фотосинтез» сильно отрицательный. Такая же закономерность наблюдается в опытном варианте, то есть корреляция между этими показателями отрицательная.

В фазе молочно-восковой спелости у сорта Президент в контрольном варианте интенсивность транспирации с такими показателями, как «масса колоса», «видимый фотосинтез», «сухая биомасса» имеет отрицательную корреляцию, а по содержанию хлорофилла, белка и крахмала корреляция положительная. В опытном варианте по всем изученным показателям, кроме видимого фотосинтеза, корреляция положительная. Такая же картина наблюдается по показателям массы колоса, массы зерна и сухой биомассе.

Данные таблицы 2 показывают, что у сорта Шамъ в фазе трубкования в контрольном варианте коэффициент корреляции между интенсивностью транспирации и сухой биомассой отрицательный, а по другим показателям коэффициент корреляции на низком положительном уровне, за исключением суммы хлорофиллов, где коэффициент корреляции выше среднего уровня.

По сухой биомассе и сумме хлорофиллов коэффициент корреляции отрицательный. В опытном варианте интенсивность транспирации имеет высокую положительную корреляцию с сухой биомассой, а с видимым фотосинтезом отрицательную. Показатель «сухая биомасса» имеет положительную связь с видимым фотосинтезом.

У сорта Шамъ коэффициент корреляции в фазе колошения в условиях контроля (оптимальный полив) интенсивность транспирации имеет отрицательную корреляцию с видимым фотосинтезом, по остальным параметрам наблюдается положительная корреляция. По сухой биомассе и сумме хлорофиллов также корреляция отрицательная. В опытном варианте интенсивность транспирации имеет положительную корреляцию с сухой биомассой и суммой хлорофиллов, по остальным параметрам корреляция отрицательная.

Показатели «сухая биомасса» и «сумма хлорофиллов» имеют отрицательную корреляцию с видимым фотосинтезом, между сухой биомассой и суммой хлорофиллов корреляция положительная.

Таблица 2

Коэффициенты корреляции между физиолого-биохимическими параметрами у сорта Шамъ по фазам онтогенеза

ФР	В	r	r_2	r_3	r_4	r_5	r_6	r_7	r_8
Трубкования	контроль	r_1	0,076	0,325	-0,977		0,040	0,263	0,358
		r_2	---	0,967	0,133		-0,993	0,981	0,958
		r_3		---	-0,119		-0,931	0,997	0,999
		r_4			---		-0,249	-0,055	-0,154
		r_5				---			
		r_6					---	0,953	-0,918
		r_7						---	0,995
	опыт	r_1	-0,339	-0,403	0,821		-0,369	-0,355	-0,403
		r_2	---	0,997	0,256		0,999	0,999	0,997
		r_3		---	0,188		0,999	0,998	1
		r_4			---		0,255	0,240	0,188
		r_5				---			
		r_6					---	0,999	0,999
		r_7						---	0,998
Колошения	контроль	r_1	0,618	0,796	0,856	0,475	-0,997	0,755	0,817
		r_2	---	0,967	0,935	0,397	-0,556	0,981	0,958
		r_3		---	0,994	-0,153	-0,747	0,997	0,999
		r_4			---	-0,046	-0,814	0,985	0,997
		r_5				---	-0,541	-0,216	-0,119
		r_6					---	-0,703	-0,770
		r_7						---	0,995
	опыт	r_1	-0,438	-0,5	0,906	0,967	-0,999	-0,453	-0,5
		r_2	---	0,997	-0,777	-0,198	0,459	0,99	0,997
		r_3		---	-0,819	-0,266	0,519	0,998	1
		r_4			---	0,770	-0,915	-0,788	-0,819
		r_5				---	-0,961	-0,215	-0,266
		r_6					---	0,474	0,519
		r_7						---	0,998
Цветения	контроль	r_1	0	0,251	0,591	0,999	-0,994	0,188	0,164
		r_2	---	0,967	-0,806	0,006	-0,106	0,981	0,958
		r_3		---	-0,631	0,257	-0,352	0,997	0,999
		r_4			---	0,58	-0,502	-0,680	-0,604
		r_5				---	-0,994	0,194	0,291
		r_6					---	-0,292	-0,385
		r_7						---	0,995
	опыт	r_1	0,069	0	-0,929	-0,654	-0,999	0,052	0
		r_2	---	0,997	0,304	0,708	-0,054	0,999	0,997
		r_3		---	0,369	0,755	0,014	0,998	1
		r_4			---	0,887	0,934	0,320	0,369
		r_5				---	0,665	0,720	0,755
		r_6					---	-0,037	0,014
		r_7						---	0,998
Молочно-восковая спелость	контроль	r_1	0,277	0,510	-0,972	0,994	-0,998	0,453	0,539
		r_2	---	0,967	-0,492	0,176	-0,327	0,981	0,958
		r_3		---	-0,695	0,418	-0,554	0,997	0,999
		r_4			---	-0,943	0,983	-0,648	-0,720
		r_5				---	-0,987	0,359	0,449
		r_6					---	-0,5	-0,583
		r_7						---	0,995
	опыт	r_1	-0,261	-0,327	-0,819	-0,944	-0,991	-0,277	-0,327
		r_2	---	0,997	0,867	0,562	0,381	0,999	0,997
		r_3		---	0,809	0,618	0,444	0,998	1
		r_4			---	0,961	0,885	0,778	0,809
		r_5				---	0,978	0,576	0,618
		r_6					---	0,397	0,44
		r_7						---	0,998

Данные показывают, что в фазе цветения в варианте контроль коэффициент корреляции между интенсивностью транспирации, сухой биомассой и хлорофиллом достаточно на высоком уровне положительная, по остальным показателям корреляционная связь очень низкая или её почти нет. Сухая биомасса имеет положительную корреляцию с суммой хлорофиллов, сухая биомасса и сумма хлорофиллов с видимым фотосинтезом имеют отрицательную связь.

В опытном варианте между интенсивностью транспирации и другими изученными параметрами практически корреляция отсутствует. Вместе с тем по сухой биомассе и сумме хлорофиллов положительная корреляция на достаточно высоком уровне, также между сухой биомассой, суммой хлорофиллов и видимым фотосинтезом наблюдается положительная связь.

Как видно, в фазе молочно-восковой спелости между интенсивностью транспирации и другими показателями имеется положительная связь, за исключением сухой биомассы и видимого фотосинтеза. По массе колоса обнаруживалась также отрицательная корреляция с сухой биомассой и видимым фотосинтезом, по массе зерна выявлена положительная связь между суммой хлорофиллов, содержанием белка и крахмала в зерне, а по сухой биомассе и видимому фотосинтезу корреляция отрицательная. Между сухой биомассой и видимым фотосинтезом корреляция положительная на высоком уровне, а по сумме хлорофиллов, содержанию белка и крахмала отрицательная связь. Показатель «сумма хлорофиллов» с видимым фотосинтезом имеет отрицательную корреляцию, а содержанием белка и крахмала слабую положительную связь.

В опытном варианте интенсивность транспирации со всеми изученными параметрами имеет отрицательную корреляцию. Вместе с тем, масса колоса имеет со всеми показателями положительную связь. Такая же тенденция с массой зерна – связь положительная. Сухая биомасса также положительно коррелирует с суммой хлорофиллов, видимым фотосинтезом, содержанием белка и крахмала в зерне. Показатель «сумма хлорофиллов» имеет положительную корреляцию с видимым фотосинтезом, содержанием белка и крахмала в зерне. Корреляция между видимым фотосинтезом и содержанием белка и крахмала ниже среднего значения. Коррелятивная зависимость между белком и крахмалом во всех вариантах опыта и исследуемых сортов пшеницы в основном на высоком уровне положительная, за некоторыми исключениями в опытном варианте (почвенная засуха), что и приводило к изменению соотношения белка и крахмала в зерне.

Литература:

1. Алтухов, А.И. Повышение эффективности производства зерна на основе научно-технического прогресса / А.И. Алтухов, В. И. Нечаев, А.И. Трубилин. – М.: АгриПресс, 2005. – 208 с.

2. Жученко, А.А. Роль адаптивной системы селекции в растениеводстве XXI века // Коммерческие сорта полевых культур Российской Федерации. - М.: ИКАР, 2003. - С.10–15.

3. Нечаев, В. И. Основные направления повышения устойчивости и эффективности зернового производства / В. И. Нечаев, В.В. Моисеев, В.В. Бондаренко [и др]. – Краснодар, 2006. – 402 с.

4. Панфилова, О.С. Исходный материал для селекции яровой мягкой пшеницы на продуктивность в условиях Центрального Нечерноземья: автореф. дис. … канд. с.-х. наук / О. С. Панфилова. – М., 2010. - 18 с.

5. Кадычегов, А.Н. Оценка адаптивных свойств яровой пшеницы по урожайности в степных условиях Хакасии / А.Н. Кадычегов, В.И. Кадычегова, А.Н. Бородыня // Вестник Алтайского государственного аграрного университета. – 2012. - №5(91). – С. 8-10.

6. Нурбеков, С.И. Биологические критерии селекции озимой мягкой пшеницы сухостепного агроэкотипа: автореф. дис. … док. биол. наук / С. И. Нурбеков; Республика Казахстан. -Алмалыбак, 2010. - 24 с.

7. Доспехов В. А. Методы полевого опыта / В. А. Доспехов. – М.: Агропромиздат – 1985. – 351 с.

8. Бабаджанова М.А. Большой практикум по физиологии и биохимии растений с основами энзимологии.

9. Бабаджанова М.А., Мирзорахимов А.К., Сайфудинов А.К., Эргашев А.Э., Эсаналиева Ш.А., Ниматова К.Н. – Душанбе. – 2017. – 136 с.

МИКРОБИОЛОГИК ЎҒИТЛАР ТАЪСИРИ НАТИЖАСИДА МОШ ЎСИМЛИГИДАГИ УРУҒ УНУВЧАНЛИГИ ВА УРУҒ УНИШ КУЧИ ИНДЕКСИНИНГ ЎЗГАРИШИ

Маткаримов Ф.И., Бабоев С.К., Файзуллаев А.З.

ЎЗРФА Генетика ва ўсимликлар экспериментал биологияси,Тошкент вилояти, Қибрай тумани Юқори-Юз кўчаси, Tel:(0371) 264-22-30, 264-79-85; Fax (0371) 264-23-90 E-mail: igebr@academy.uz

Ўсимликлардаги асосий физиологик жараёнлар ўсимликлар уруғдан униб чиқиши билан бошланади. Уруғларнинг унувчанлиги экишга яроқлилигини белгилайдиган энг муҳим хусусиятлардан биридир. Уруғларнинг унувчанлиги экиннинг кўчат қалинлигига, ўсимликларнинг ривожланиши ҳамда бошқа белгиларига таъсир кўрсатади. Лаборатория шароити қулай бўлганлигидан уруғ уруғларнинг унувчанлиги дала шароитига қараганда доимо юқори бўлади. Шундай бўлса ҳам уруғларнинг унувчанлиги экишга яроқлилик сифатларини етарлича яхши ифодалайди [6].

Мош ўсимлигининг дони юқори калорияли, тез ҳазм бўладиган озуқа маҳсулоти бўлиб, таркибида ўртача 24,7 % оқсил, 50,4 % углевод ва 1,5 % мой сақлайди. Бундан ташқари мош ўсимлиги энг яхши сидерит экинлардан бири ҳисобланади. У кўк ўғит сифатида ишлатилса, тупроқда 70 ц/га қуруқ модда тўпланади, бу эса 100 кг гача азот демакдир [4, 5]. Ўсимликларнинг шу жумладан мош ўсимлигининг ўсиши ва ривожланишида яхши сифатли уруғларни танлаш муҳим аҳамиятга эга. Юқори сифатли уруғлардан олинган ҳосил паст сифатли уруғлардан олинган ҳосилга нисбатан 18 % юқори бўлиши тажрибаларда аниқланган [2]. Уруғларнинг униш кучи индекси уруғ сифатини аниқловчи кўрсаткичлардан бири ҳисобланади. Уруғларнинг униш кучи индекси ўсимликларнинг униб чиқишида муҳим аҳамиятга эга. Униш кучи индекси юқори бўлган уруғлар юқори қувватли уруғлар дейилади [3]. Тадқиқотларда микробиологик ўғитларнинг нўхат ўсимлиги уруғ унувчанлиги, униш кучи индекси, ўсиш динамикасига ижобий таъсири ўрганилган [7,8].

Микробиологик ўғитларнинг мош ўсимлиги уруғ унувчанлигига ва уруғнинг униш кучи индексига таъсирини ўрганиш учун мошнинг Турон нави ҳамда Биоазот, Замин М, ПлантаСтим, Rhizobium 3, Rhizobium 9 микробиологик ўғитларининг 1:5, 1:10, 1:15, 1:20, 1:25 нисбатларда суюлтирилган эритмаларидан фойдаланилди. Назорат уруғлар дистилланган сувда, тажриба ўсимликлари эса микробиологик ўғитларнинг эритмалари билан инокуляция қилинди. Инокуляция қилинган уруғлар пинцент ёрдамида Петри ликобчасида ҳосил қилинган нам шароитда 7 кун давомида униш тезлигини кузатиш учун 25-26^{0}С ҳароратли сунъий иқлим камерасига 2 та қайтариқда қўйилди. 7-кун уруғ унувчанлиги ва униш кучи индекси аниқланди (1-жадвал).

1-жадвал

Мош ўсимлигининг унувчанлиги ва униш кучи индексига микробиологик ўғитларнинг таъсири (лаборатория шароитида)

Вариантлар	Ўсимлик илдиз узунлиги см. да	Ўсимлик ўсимтаси узунлиги см. да	Кўчат узунлиги (илдиз+ўсимта) см. да	Уруғ унувчан-лиги % да	Униш кучи индекси
Назорат	6,16±0,19	14,71±0,26	20,87±0,36	80%	1669,6
ПлантаСтим (1:5)	6,19±0,35	14,14±0,83	20,33±1,11	75%	1524,8
ПлантаСтим (1:10)	6,14±0,26	14,27±0,43	20,41±0,59	80%	1632,8
ПлантаСтим (1:15)*	7,55±0,41	16,55±0,46	24,10±0,73	80%	1928
ПлантаСтим (1:20)	6,52±0,28	14,78±0,61	21,30±0,76	85%	1810,5
ПлантаСтим (1:25)	6,47±0,28	14,78±0,51	21,25±0,74	80%	1700
Rhizobium 3 (1:5)	5,63±0,26	14,40±0,72	20,02±0,90	70%	1401,4
Rhizobium 3(1:10)*	6,81±0,24	16,52±0,32	23,33±0,51	90%	2099,7
Rhizobium 3 (1:15)	6,26±0,27	14,94±0,46	21,19±0,55	80%	1695,2
Rhizobium 3 (1:20)	6,21±0,18	14,84±0,41	21,06±0,50	80%	1684,8
Rhizobium 3 (1:25)	6,21±0,26	14,68±0,37	20,89±0,60	80%	1671,2
Rhizobium 9 (1:5)	6,24±0,29	13,84±0,53	20,09±0,78	90%	1808,1
Rhizobium 9 (1:10)*	7,63±0,38	16,41±0,60	24,04±0,88	90%	2163,6
Rhizobium 9 (1:15)	6,51±0,35	15,34±0,59	21,86±0,88	80%	1749,6
Rhizobium 9 (1:20)	6,48±0,22	15,14±0,53	21,63±0,71	80%	1730,4
Rhizobium 9 (1:25)	6,18±0,28	13,96±0,65	20,14±0,88	80%	1611,2
Замин М (1:5)	6,43±0,28	15,00±0,40	21,43±0,58	80%	1714,4
Замин М (1:10)*	6,54±0,29	15,35±0,57	21,89±0,82	85%	1860,7
Замин М (1:15)	6,39±0,21	14,79±0,43	21,19±0,57	85%	1801,1
Замин М (1:20)	6,35±0,28	14,54±0,61	20,89±0,79	80%	1676,8
Замин М (1:25)	6,20±0,21	14,69±0,58	20,89±0,75	80%	1671,2
Биозот (1:5)	7,13±0,29	16,29±0,58	23,41±0,82	80%	1872,8
Биозот (1:10)*	7,66±0,25	16,31±0,47	23,96±0,69	85%	2036,6
Биозот (1:15)	7,11±0,24	16,61±0,44	23,71±0,59	85%	2015,4
Биозот (1:20)	6,89±0,20	16,31±0,49	23,20±0,66	80%	1856
Биозот (1:25)	6,48±0,17	15,28±0,40	21,75±0,52	80%	1740

Тажрибада мош ўсимликларининг илдиз узунлиги 5,63 – 7,66 см., ўсимта узунлиги 14,14 – 16,61 см., кўчат узунлиги 20,02 – 24,04 см., унувчанлиги 75 – 90 %, униш кучи индекси 1401,4 – 2163,6 ни ташкил этди. Илдиз узунлигининг энг паст кўрсаткичи (5,63±0,26 см.) Rhizobium 3 микробиологик ўғитининг 1:5 нисбатда суюлтирилган эритмалари билан ишлов берилган намуналарида, илдиз узунлигининг энг юқори кўрсаткичи (7,66±0,25 см.) Биоазот микробиологик ўғитининг 1:10 нисбатда суюлтирилган эритмалари билан ишлов берилган намуналарида кузатилди. Ўсимта узунлигининг энг паст кўрсаткичи (14,14±0,83 см.) ПлантаСтим микробиологик ўғитининг 1:5 нисбатда суюлтирилган эритмалари билан

ишлов берилган намуналарида, ўсимта узунлигининг энг юқори кўрсаткичи (16,61±0,44 см.) Биоазот микробиологик ўғитининг 1:15 нисбатда суюлтирилган эритмалари билан ишлов берилган намуналарида кузатилди. Кўчат узунлигининг энг паст кўрсаткичи (20,02±0,90 см.) Rhizobium 3 микробиологик ўғитининг 1:5 нисбатда суюлтирилган эритмалари билан ишлов берилган намуналарида, ўсимта узунлигининг энг юқори кўрсаткичи (24,04±0,88 см.) Rhizobium 9 микробиологик ўғитининг 1:10 нисбатда суюлтирилган эритмалари билан ишлов берилган намуналарида кузатилди. Назорат вариантларда унувчанлик 80 % ни, униш кучи индекси қиймати эса 1669,6 ни ташкил қилди. ПлантаСтим микробиологик ўғитининг 1:5, 1:10 нисбатда суюлтирилган эритмалари билан ишлов берилган намуналарида уруғ унувчанлиги (75%, 80%) ва униш кучи индекси (1524,8, 1632,8) назорат ўсимликларга нисбатан паст бўлиши, қолган вариантларда эса назоратга нисбатан юқори бўлиши аниқланди. Микробиологик ўғитнинг униш кучи индексига оптимал таъсири 1:15 нисбатда суюлтирилган эритмалари билан ишлов берилган ўсимликларда кузатилди яъни 1928 ни ташкил қилди. Rhizobium 3 микробиологик ўғитининг 1:5 нисбатда суюлтирилган эритмаси билан ишлов берилган намуналарида уруғ унувчанлиги (70 %) ва униш кучи индекси (1401,4) назорат ўсимликларга нисбатан паст бўлиши, қолган вариантларда эса назоратга нисбатан юқори бўлиши аниқланди. Микробиологик ўғитнинг оптимал таъсири 1:10 нисбатда суюлтирилган эритмалари билан ишлов берилган ўсимликларда кузатилди. Бунда унувчанлик 90 % ни, униш кучи индекси 2099,7 ни ташкил қилди.

Rhizobium 9, Биоазот, Замин М микробиологик ўғитларининг барча вариантларида униш кучи индекси назоратга нисбатан юқори бўлиши аниқланди. Микробиологик ўғитларнинг оптимал таъсири 1:10 нисбатдаги эритмалар билан ишлов берилган ўсимликларда кузатилди. Rhizobium 9 билан ишлов берилган вариантларда уруғ унувчанлиги 80 – 90 %, униш кучи индекси 1611,2 – 2163,6 ни, Биоазот билан ишлов берилган вариантларда уруғ унувчанлиги 80 – 85 %, униш кучи индекси 1740 – 2036,6 ни, Замин М билан ишлов берилган вариантларда уруғ унувчанлиги 80 – 85 %, униш кучи индекси 1860,7 – 2036,6 ни ташкил қилди.

Натижалардан шундай хулоса қилиш мумкинки, микробиологик ўғитлардан ПлантаСтимнинг 1:15 ва 1:20 нисбатда суюлтирилган эритмалари, Rhizobium 3, Rhizobium 9, Биоазот, Замин М микробиологик ўғитларининг 1:10 нисбатда суюлтирилган эритмалари мош ўсимлигининг уруғ унувчанлиги ҳамда униш кучи индексига таъсири оптимал эканлиги аниқланди. Бунда энг юқори кўрсаткич Rhizobium 9 нинг 1:10 нисбатда суюлтирилган эритмалари бошқа вариантларга нисбатан юқори кўрсаткич қайт этди. Rhizobium 9 микробиологик ўғитини мош экинини етиштиришда қўллаш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Abdul-Baki, A.A. and Anderson, J.D. 1973. In: Physiological and biochemical deterioration of seeds. Kozlowski, T.T. (ed.). Seed biology. 2: 283-315. Academic Press, New York.

2. Bishnoi,U.R. and Deloucne, J.C. 1980. Relationship of vigour tests and seed lots cotton seedling establishment. Seed Science Tech. 8:341-345.

3. Black, M. and Beweley, J. D. 2000. Seed Technology and its Biological Basis. Sheffield Academic press Ltd, sheffield.

4. Сафонова А.Ф. Федотова В.А. Технология производства продукции растениеводства. Москва “Колос” 2010 ст. 93-197.

5. Чирков В.Н. Донли экинлар.// “Ўқитувчи” Тошкент -1975. 225 б.

6. Yaqubjonov O., Tursunov S. O‘simlikshunoslik (amaliy mashg‘ulotlar) T. // “Fan va texnologiyalar” 2008, 304 bet.

7. Маткаримов Ф.И., Бабоев С.К. Нўхат ўсимлигининг унувчанлигига микробиологик ўғитларнинг таъсири // Fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi: muammolar va innovatsion yechimlar, Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 2022 yil 12 sentabr, 250 – 252 бетлар.

8. Фаррух Илхомович Маткаримов, Саидмурод Кимсанбоевич Бабоев Нўхат ўсимлигининг уруғ унувчанлигига ва ўсиш динамикасига микробиологик ўғитларнинг таъсири // Academic Research in Educational Sciences Volume 3, Issue 11, 2022, 237 – 241 бетлар.

QASHQADARYO VILOYATI SHAROITIDA TAKRORIY EKIN SIFATIDA EKILGAN SOYANING GENETIK KOLLEKSIYASI NAMUNALARINING MORFOLOGIK BELGILARI

[1]Mavlonova G.Dj., [2]Matniyazova H.X.

[1]Chirchik Davlat pedagogika universiteti, gulnozamavlyanova21@gmail.com

[2]O'zR FA Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti, matniyazova@mail.ru

Dunyoda dukkakli don ekinlari xalq xo'jaligida juda muhim hisoblanib, dunyo aholisini oqsil, moy, uglevod va boshqa organizm uchun zarur moddalarga bo'lgan talabini qondirishda asosiy mahsulotlar ekanligi ma'lum. Soya tarkibida nodir oqsillar mavjud bo'lib, u ozuqalik qimmati bo'yicha hayvon oqsilidan qolishmaydi. Uning tarkibida noyob biologik faol moddalar va vitaminlar hamda qimmatli mikroelementlar mavjud. Soya tarkibida laktoza va xolesterin umuman uchramaydi [1].

Soyaning naviga va yetishtirish sharoitiga bog'liq holda, uning donida 30-55% oqsil va 17-26 % yog' mavjud. Soyaning donida 20-25% uglevodlar, 4-5 % ko'plab elementlar (jumladan Sa, R, K, Na, I, Mo va boshqalar) hamda vitaminlar (E, B1, B2, B6) uchraydi. Soyadan mingdan ortiq mahsulotlar olinadi. Ozuqa oqsili, moy, kunjara, omuxta yem ishlab chiqarishda soya asosiy ekinlardan biri hisoblanadi [4].

Soya juda qadimgi ekin turi bo'lib hisoblanadi. Soyaning shakl va turlarining xilma-xilligini olimlar o'rganishib, bu turlar asosan 3 ta markazda shakllanganligini qayd etganlar. Ular: Janubiy-Sharqiy Osiyo, Avstraliya va Sharqiy Afrika. Aksariyat olimlarning fikriga ko'ra, soyaning vatani Osiyoning janubiy-sharqiy rayonlari hisoblanadi. Sharq mamlakatlarida soya qadimdan oziq-ovqat ekini sifatida ekib kelingan [5].

Soyaning turli mamlakatlarda keng maydonlarda yetishtirishning boisi shundaki, uning doni va yashil massasi to'yimli bo'lib, oziq-ovqat, yem-xashak, texnik va tibbiyot sohalarida ishlatiladi. Soyaning naviga va yetishtirish sharoitlariga bog'liq holda uning donida 34-48 % oqsil va 17-26 % yog' mavjud. Soya oqsillari yuqori sifatli lizin va treonin kabi muhim aminokislotalarning boy manbai bo'lganligi bilan ajralib turadi. Soyaning asosiy oqsili – glitsinin yaxshi hazmlanadi, suvda yaxshi eriydi, achib qatiqqa aylanadi, oqsili almashtirilmaydigan aminokislotalarga boy.[3]

Soyaning donida shuningdek 20-25 % uglevodlar, 4-6 % kul elementlari, turli vitaminlar va boshqa moddalar uchraydi. Soyadan mingdan ortiq mahsulotlar olinadi. Soya molekulyar azotni o'zlashtiruvchi o'simlik bo'lib, tuproq unumdorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega [2]. Soya ekilgan dalalarda tuproqning mikroflorasi yaxshilanib, sof biologik va ekologik tizim vujudga keladi. Shu bois olimlarning bu o'simlikka bo'lgan qiziqishlari ortib bormoqda: har yili soyaning yangi navlari yaratilmoqda, turli genotiplarning bioekologik, fiziologik va biokimyoviy xususiyatlari o'rganilyapti, soya navlarini yetishtirishning mintaqaviy agrotexnologiyalari ishlab chiqilmoqda [6] .

Tadqiqot ob'ekti sifatida takroriy ekin sifatida ekilgan soyaning genitik kolleksiya namunalaridan foydalanildi. Tajribalar 2022-2023 yillarda Qashqadaryo viloyati Kitob tumanida olib borildi.Buning uchun takroriy ekin sifatida ekilgan soyaning genitik kolleksiya Gen-2, Cen-22, Gen-42, Gen-186 ,Gen-51, Gen-17, Gen-19, Gen-190, Gen-191, Gen-192 namunalaridan 10 tadan o'simlik tanlab olinib, shonalash, gullash va dukkak hosil qilish fazalarida ularning morfologik

belgilari bo‘laklarning o‘lchami va variantlar takroriyligi, Dospexov 1985 metodi yordamida statistik tahlil qilindi.

Morfologik belgilardan asosiy poyadagi barglar va bo‘g‘inlar soni har bir fazada 10 tadan o‘simlikda sanash orqali aniqlandi.

Morfobiologik belgilar soya ekini uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi bois, tadqiqotlarimizda soyaning genitik kolleksiya namunalaridan g‘unchalash, gullash davrlarida o‘simlik bosh poyasining balandligi va bitta o‘simlikdagi barglar soni hamda bosh poyadagi bo‘g‘inlar soni belgilari o‘rganildi.

Soyaning g‘unchalash davrida olgan natijalarimiz tahliliga ko‘ra, o‘simlik bosh poyasining balandligi bo’yicha eng yuqori ko’rsatgich nazoratda Gen-22 13,7±1,26 sm ni tashkil qilgan bo‘lsa, tajribada esa Gen-2 22,6±2,03 sm ni tashkil qildi,eng past ko’rsatgich nazoratda Gen-42 7,0±0,53sm ni tashkil qilgan bo’lsa tajribada esa Gen-191 11,8±0,89sm ni tashkil qildi

Tadqiqotlarimizda soya o‘simligining g‘unchalash davrida barglar soni ham o‘rganildi. Ma’lumki, barglar o‘simlik uchun muhim organ hisoblanib, fotosintez jarayonlarining asosiy qismi barglarda kechadi. Barg qanchalik ko‘p va yuzasi qanchalik katta bo‘lsa, o‘simlikda fotosintez jarayoni shuncha jadal kechadi. Fotosintez jarayonining jadal kechishi natijasida o‘simlik tez o‘sadi va generativ organlar ko‘proq rivojlanadi. G’unchalash davrida bitta o‘simlikdagi barglar soni bo’yicha soya namuna kolleksiyalaridan eng yuqori ko’rsatgich nazoratda Gen-17 5,7± 0,16 dona bo‘lgan bo‘lsa, tajribada Gen-190 12,6±0,86 dona ekanligi aniqlandi.

G’unchalash davrida yana bir morfologik belgi – bosh poyadagi bo‘g‘inlar soni ham o‘rganildi. Bunda eng yuqori ko’rsatgich soya namuna kolleksiyalaridan Gen-17 3,9±0,27dona ekanligi aniqlangan bo‘lsa, tajribada esa Gen-186 va Gen-190 (mos ravishda4,6±0,12 va 4,6±0,29) dona ekanligi aniqlandi.

Tajribalarimizda soyaning genitik kolleksiya namunalari o‘simliklari morfologik ko‘rsatkichlari gullash davrida ham o‘rganildi. Gullash davriga kelib soyaning genitik kolleksiya namunalari bosh poya balandligi jadal sur’atda o‘sishi aniqlandi. Gullash davrida bosh poya balandligi bo’yicha soya namuna kolleksiyalaridan eng yuqori ko’rsatgich nazoratda Gen-190 55,5±0,3 sm ni tashkil etgan bo‘lsa, tajribada Gen-51 67,9±4,08 sm ni tashkil etdi.

Bitta o‘simlikdagi barglar soni aniqlanganda soya genitik kolleksiya namunalarida eng yuqori ko’rsatgich nazoratda Gen-17 24,6±1,96 dona, tajribada esa Gen-17 37±3,67donani tashkil etdi, eng past ko’rsatgich nazoratda Gen-1913,2±0,43, tajribada esa Gen-22, 20,8±2,62 dononi tashkil etdi. Bosh poyadagi bo‘g‘inlar soni bo’yicha eng yuqori ko’rsatgich nazoratda Gen-192 14,6±0,4 donani, tajribada esa Gen 192, Gen- 17, Gen-22, Gen-19 (mos ravishda (mos ravishda14,8±0,81, 14,8±0,37, 14,8±0,8, 14,8±0,86 dona ekanligi aniqlandi.

Shunday qilib, olingan natijalarga ko‘ra soya genitik kolleksiya namunalari Qashqadaryo viloyati sharoitida o‘rganilgan morfologik belgilari bo‘yicha nazoratga nisbatan tajriba (preparat bilan ishlov berilganda) yuqori ko‘rsatkichlarni qayd qildi. Nazoratda eng yuqori ko’rsatgich Gen-22, Gen-17, Gen-2, Gen-190 tashkil qilgan bo’lsa, tajribada esa eng yuqori ko’rsatgich Gen-2, Gen-186, Gen-190, Gen-17 tashkil etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurazakova Z.L., Yunusxonov Sh., Kurbanbayev I.D. va b. Soya genetik kollektsiyasi urug‘ oqsillarining elektroforetik tarkibi // O‘zbekiston agrar fani xabarnomasi. 2020 № 1 (79) – B. 35-37.

2. Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari. // O’zPITI. – Toshkent, 2007. – B. 48-52.

3. Matniyazova H. X., Nabiyev S. M, Mavlyanova G.Dj., Muxitdinova M. M., Qarshibaeva D.N, Salohiddinova M.M. Turli suv rejimi sharoitida mahalliy va xorijiy soya navlarining morfologik belgilari Academic Research in Educational Sciences Volume 4 | Issue 4 | 2023. B. 202-207.

4. Matniyazova H. X., Yuldashov O'. X., Qarshibaeva D.N, Salohiddinova M.M., Nabiyev S. M., Mavlyanova G.Dj., Sobirova D. Z. Mahalliy soya navlarining morfologik belgilariga fitopatogen mikromitsetlar tasiri Academic Research in Educational Sciences Volume 4 | Issue 5 | 2023. B. 99-106.

5. Yormatova D.Yo. Soya oqsilli o'simlik va to'yimli ozuqa. Zooveterinariya jurnali Toshkent, 2014 y. №5. B 23-24.

6. Mavlyanova G.Dj. Toshkent viloyati sharoitida mahalliy soya navlarining fiziologik xususiyatlarini o'rganish // "Science and education" Scientific journal. November 2020 / Volume 1 Special ISSUE 3. – B. 6-14.

TURICHI DURAGAYLARIDA VEGETATSIYA DAVRI DAVOMIYLIGINING IRSIYLANISHI

Mo'minov H.A., Xamroyev R.J.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq, O'zbekiston, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi 104 uy. Tel.: +99870 716-68-05,. x.mominov@cspi.uz

Ma'lumki, g'o'za o'simligida tezpisharlik eng muhim xo'jalik ahamiyatga ega bo'lgan belgilaridan biri hisoblanadi. Chunki, erta yig'ib olingan paxta hosili kelgusi yilga puxta zamin yaratilishi bilan birga, uning sifatiy baholanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ertapisharlik barcha miqdoriy belgilar qatorida polimer genlar ta'sirida irsiylanadi. Polimer irsiylanish nazariyasiga ko'ra, polimer genlar ta'sirining yig'indisi ma'lum bir belgining namoyon bo'lishini, ya'ni irsiylanish darajasini belgilab beradi. Belgining rivojlanishiga faol, ya'ni dominant allel genlarning har biri bir xilda hissa qo'shadi. O'z navbatida o'simlik genotipida dominant allel genlar qanchalik ko'p bo'lsa, belgi shunchalik kuchli namoyon bo'ladi [10, 11, 12, 18, 19, 20].

Shu boisdan, hozirgi davrda tezpishar g'o'za navlarini yaratishda uning genetik asosi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki chatishtirish uchun tanlangan boshlang'ich ashyoning genotipidagi belgilar qamroviga bog'liq ravishda keyingi avlodlardagi ajralish jarayonida kerakli rekombinantlarni tanlash imkoniyati turlicha bo'ladi [1, 2, 11, 14, 15, 16, 17,]. Bunda ayniqsa tezpisharlik, turli xil kasallik va zararkunandalarga chidamlilik va boshqa shu kabi belgilarni aniqlash va madaniy navlarga o'tkazishda g'o'za genofondidagi manbalarning, ayniqsa yovvoyi turlarning xilma-xilliklaridan foydalanish yuqori samara berishi ko'pchilik olimlar tomonidan ta'kidlangan [1, 3, 4, 5, 6, 9].

Mavjud adabiyotlar tahlilidan G.herbaceum L. turichi xilma-xilliklarining yovvoyi, ruderal va tropik shakllarida tezpisharlik belgisining irsiylanish xarakteri deyarli o'rganilmaganligi, aksariyat tadqiqotlar madaniy navlarga tegishli ekanligi ma'lum bo'ldi [7, 8, 16, 18, 19, 20].

Duragaylash ishlari umumiy qabul qilingan uslublar asosida olib borildi. Boshlang'ich manbalar va ularni o'zaro duragaylash natijasida olingan 2n = 13 xromosomali diploid duragaylarning chigitlarining mikropilyar qismidagi qobig' ozgina kesib tashlanib, Petri kosachasida (chashka) 30-350S haroratdagi termostatda undirildi. So'ngra nish otgan urug'larni 1:1:1 nisbatda go'ng, tuproq va qum aralashmasi solib tayyorlangan qog'oz tuvakchalarga ekib undirildi. Tuvakchalardagi nihollar 2-3 haqiqiy chinbarg hosil qilgandan Vagner idishlarga o'tkazildi. Ushbu unib chiqqan F1-o'simliklari umum qabul qilingan uslublar asosida kuzatuv ishlari olib borildi. O'suv davrining oxirida F2-o'simliklarning asosiy mofobiologik va qimmatli xo'jalik belgilariga tavsif berildi [13].

Tajribada boshlang'ich manba sifatida Gossypium L. turkumiga kiruvchi G.herbaceum L. turlarining bir qator yovvoyi, ruderal, tropik hamda subtropik shakllari hamda ularni turichi va turlararo duragaylash asosida olingan F1-o'simliklari o'rganildi.

Bu turlarga kiruvchi kenja turlar va shakllar F.M. Mauyer [5] klassifikatsiyasida yaxshi yoritilgani uchun tadqiqotimizda ushbu klassifikatsiyadan foydalandik:

Turkum. Gossypium L.

Kenja turkum. Eugossypium Tod. ampl. (Mauer).

Sektsiya. Indica Tod. ampl. (Mauer).

Kenja sektsiya. Indica Tod. em. (Mauer).

Tur: G.herbaceum L.

Kenja tur va shakllar: subsp. africanum (Watt) Mauer; subsp. pseudoarboreum Mauer; f. harga; subsp. euherbaceum Mauer; (377 navi).

Shundan kelib chiqqan holda, Afro-Osiyo (G.herbaceum L.) g‘o‘za turlarining yovvoyi, ruderal, tropik va madaniy shakllarini chatishtirish natijasida olingan turichi va turlararo duragaylarida ertapisharlik belgisining irsiylanish va o‘zgaruvchanlik xususiyatlari o‘rganildi. Fenologik kuzatishlar tahlili G.herbaceum L. turichi xilma-xilliklarining vegetatsiya davrining davomiyligi turlicha ekanligini, yovvoyi subsp. africanum kenja turida bu muddat 136,0 ◎ 0,5 kunni, ruderal, tropik va madaniy kenja turlar va shakllarida 117,0-122,0 kunni tashkil qilishini ko‘rsatdi (1-jadval).

G.herbaceum L. turichi genetik xilma-xilliklarini chatishtirish asosida olingan F1-o‘simliklarida vegetatsiya davrining davomiyligi kombinatsiyaga bog‘liq ravishda 106,0-133,5 kunni tashkil etdi. Yovvoyi va ruderal shakllarini o‘zaro chatishtirish asosida olingan F1-o‘simliklarida vegetatsiya davrining davomiyligi 121,7-125,1 kunni, o‘zgaruvchanlik amplitudasi yuqori bo‘lmagani tufayli variatsiya koeffitsiyenti 1,9-2,0 % ni tashkil etdi. subsp. pseudoarboreum x subsp. africanum retsiprok duragay kombinatsiyasida vegetatsiya davri davomiyligi 121,7-125,1 kun bo‘lib, (hp=-0,68; hp=-0,28), ota-ona shakllariga nisbatan oraliq holatda irsiylanish kuzatildi. Yovvoyi va madaniy hamda ruderal shakllarni o‘zaro chatishtirish natijasida olingan F1 duragaylarida o‘rganilayotgan belgining oraliq holatida irsiylangani (hp=-0,40; hp=-0,71; hp=-0,73) aniqlandi.

1-jadval

Boshlang‘ich manbalar va ularning turichi va turlararo F_1-‘simliklarida vegetatsiya davrining irsiylanishi va o‘zgaruvchanligi

№	Turichi shakllari va F_1 duragay kombinatsiyalari	Unib chiqishdan, 50 % ko‘sak ochilgungacha (kun)			
		$\bar{x} \pm S\bar{x}$	limit	V %	hp
1	G.herbaceum subsp.africanum	136,0 ± 0,5	134 - 138	1,1	-
2	G.herbaceum subsp.pseudoarboreum	119,0 ± 0,6	117 - 122	1,5	-
3	G.herbaceum subsp.pseudoarboreum f.harga	122,0 ± 0,6	118 - 124	1,7	-
4	G.herbaceum subsp.euherbaceum («377» navi)	117,0 ± 0,6	115 - 120	1,5	-
Turichi F_1 duragaylari **(G.herbaceum L. x G.herbaceum L.)**					
1	subsp.africanum x subsp.pseudoarboreum	125,1 ± 0,8	122 - 128	2,0	-0,28
2	subsp.pseudoarboreum x subsp.africanum	121,7 ± 0,7	119 - 125	1,9	-0,68
3	subsp.pseudoarboreum f.harga x subsp.africanum	124,1 ± 1,3	120 - 130	3,4	-0,70
4	subsp.africanum x subsp.euherbaceum («377» navi)	133,5 ± 0,9	128 - 135	2,2	-0,73
5	subsp.euherbaceum («377» navi) x subsp.africanum	119,8 ± 0,5	118 - 122	1,2	-0,71
6	subsp.pseudoarboreum x subsp.pseudoarboreum f.harga	119,9 ± 1,1	115 - 125	2,9	-0,40
7	subsp.pseudoarboreum f.harga x subsp.pseudoarboreum	123,0 ± 0,4	122 - 125	1,0	-1,67
8	subsp.pseudoarboreum x subsp.euherbaceum («377» navi)	106,0 ± 0,5	105 - 109	1,4	-12,00

9	subsp.euherbaceum («377» navi) x subsp.pseudoarboreum	111,0 ± 0,5	109 - 113	1,3	-7,00
10	subsp.pseudoarboreum f.harga x subsp.euherbaceum («377» navi)	111,0 ± 0,6	109 - 113	1,6	-3,40
11	subsp.euherbaceum («377» navi) x subsp.pseudoarboreum f.harga	114,0 ± 0,3	112 - 115	1,05	-2,20

Faqat, ruderal shakllarini o‘zaro chatishtirish asosida olingan F1 subsp. pseudoarboreum f. harga x subsp. pseudoarboreum kombinatsiyasida vegetatsiya davrining davomiyligi -123,0 ⊚ 0,4 kunni tashkil etib, salbiy geterozis holatida irsiylanish kuzatildi (hp=–1,67).

Eng yuqori ko‘rsatkich ruderal va madaniy shakllarini o‘zaro chatishtirish asosida olingan retsiprok duragay kombinatsiyalarda kuzatilib, ularning vegetatsiya davrining davomiyligi 106,0-114,0 kunni tashkil etdi. subsp. pseudoarboreum x subsp. euherbaceum («377» navi) kombinatsiyalarda vegetatsiya davrining davomiyligi 106,0 ⊚ 0,5 kun bo‘lib, o‘zgaruvchanlik amplitudasi 105-109 kunni, variatsiya koeffitsiyenti 1,4 % ni, dominantlik koeffitsiyenti hp=-12,00 ni tashkil etdi, ya'ni ushbu belgi ijobiy geterozisli o‘ta dominantlik holatida irsiylandi. subsp. euherbaceum («377» navi) x subsp. pseudoarboreum f. harga kombinatsiyasida esa vegetatsiya davrining davomiyligi 114,0 ⊚ 0,3 kun, o‘zgaruvchanlik amplitudasi yuqori bo‘lmay (112-115 kun), variatsiya koeffitsiyenti 0,9 % ni, dominantlik koeffitsiyenti hp=-2,20 ni tashkil etdi, ya'ni o‘rganilayotgan belgi ijobiy geterozis holatida irsiylangani qayd etildi.

Adabiyot manbalaridan ma'lumki, vegetatsiya davrining davomiyligi yaqin bo‘lgan navlar chatishtirilganda birinchi avlod duragaylari ikkala ota-ona shakllaridan ham ertapisharroq bo‘lishi mumkin. Bunday holat belgining strukturaviy elementlarining kombinativ almashinuvi hisobiga yuz berishi mumkin. Masalan, ota-onalardan birining “unish-shonalash” fazasi davomiyligining qisqaligi va ikkinchisining “gullash-pishish” fazasi davomiyligining qisqaligi F1-o‘simliklarida namoyon bo‘lishi mumkin [10].

Xulosa qilib aytganda ertapisharlilik hosil miqdorini, paxta va tola sifatini, mashina terimini, tolaning tannarxiga ta’sir etuvchi belgi bo’lib, g’o’za genetikasi va selektsiyasi sohasidagi olimlar tadqiqot olib borishda foydalanishlari uchun eng asosiy manba sifatida xizmat qiladi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуллаев А.А. Исторические аспекты эволюции скороспелости хлопчатника // Ғўза ва бошқа қишлоқ хўжалик ўсимликларида тезпишарликни ҳамда мосланувчанликни эволюцион ва селекцион қирралари: Халқ. ил. конф. мат. –Тошкент, 2005. – Б. 9-11.

2. Жумаев Ф.Х., Абзалов М.Ф., Оразбаева Г., Холов Ё. Ғўзанинг G.hirsutum L. мансуб ғўза навларида дурагай бўғинларида тезпишарликнинг генотипига боғлиқлиги // Эвол. и сел. асп. скоросп. и адап. хл-ка и др. с/х к-р: Мат. межд. науч. конф. – Ташкент, 2005. – С. 37-40.

3. Hidoyatova D.X., Mo’minov H.A. G’o’zani Gossypium turkumi turlaridan foydalanilishi bo’yicha tadqiqotlar tahlili. Academic Research in Educational Sciences (ARES). 2022. - Vol. 3 Issue: 1. - P. 959-971.

4. Hidoyatova Diyora Xamidulla qizi, G’aybullayev Alisher Ravshan o’g’li, Mo‘minov Hasan Aliqulovich G.herbaceum L. turichi shakllarida sitoembriologik belgilarining qiyosiy tahlili. Academic Research in Educational Sciences (ARES). 2023. - Vol. 4 Issue: 5. - P. 11-18.

5. Мауер Ф.М. Происхождение и систематика хлопчатника // В. кн.: Хлопчатник. – Ташкент: АН УзССР, 1954. – Т. 1. – 384 с.

6. Муминов Х.А. Наследование некоторых хозяйственно-ценных признаков у внутривидовых разновидностей хлопчатника и полученных на их основе F1-растений. Современная биология и генетика (Международный научный журнал), №1-2. Изд. ООО «Lesson press». 2022.- С. 71-77.

7. Мўминов Х.А. G.herbaceum L. туричи F1-ўсимликларида айрим қимматли хўжалик белгиларининг ирсийланиши. Academic Research in Educational Sciences (ARES). 2022. - Vol. 3 Issue: 3. - P. 1048-1057.

8. Муминов Х.А., Абдуллаев Ф.Х. Использование различных таксономических групп старосветских видов хлопчатника на основе филогенетического родства // Энерго- и ресурсоэфф. техн. пр-ва и храню с/х продукции: Мат. межд. науч.-практ. конф мол. уч., асп. и студ. – 30-31 октября 2014 г. – Харьков, 2014. – С. 121-124.

9. Ризаева С.М. Отдаленная гибридизация хлопчатника и получение новых доноров (на примере новосветских видов): Автореф. дисс. ... док. биол. наук. – Ташкент: НПО «Биолог» АН РУз, 1996. – 50 с.

10. Симонгулян Н.Г. Генетика количественных признаков хлопчатника // Ташкент: Фан, 1991. – 123 с.

11. Симонгулян Н.Г. Проблема скороспелости в селекции хлопчатника // Ташкент: Фан, 1971. – 221 с.

12. Симонгулян Н.Г., Мухамедханов С.Р., Шафрин А.Н. Генетика, селекция и семеноводство хлопчатника // Ташкент, 1987. – 309 с.

13. Abdurakhmonov I.Y., Abdullaev A., Buriev Z., Shermatov Sh., Kushanov F.N., Makamov A., Shapulatov U., Egamberdiev Sh.S., Salakhutdinov I.B., Auybov M., Darmanov M., Rizaeva S.M., Abdullaev F., Nomozov Sh., Khalikova M., Saydaliev H., Avtonomov V.A., Snamyan M., Duiesenov T.K., Musaev J., Abdullaev A.A., Abdukarimov A. Cotton germplasm collection of Uzbekistan.//In book: World Cotton Germplasm Collection.- Chapter 11.- Ed. Abdurakhmanov I.Y.- Intech, 2014.- P. 289-309.

14. Amanov B., Muminov K., Samanov S., Abdiev F., Arslanov D., Tursunova N. Cotton introgressive lines assessment through seed cotton yield and fiber quality characteristics. SABRAO Journal of Breeding and Genetics, 2022. 54 (2) - P. 321-330.

15. Muminov Kh.A. Inheritance of morphological traits in F1-plants of species Afro-Asian cotton. Universum: химия и биология: научный журнал. – № 6(84). Часть 2. М., Изд. «МЦНО», 2021.- С. 49-54.

16. Muminov Kh.A., Abdullaev F.Kh. The genetic potential of intraspecific polymorphic diploid species of the genus Gossypium L. // The Way of Science. – Volgograd: Scientific Survey, 2016. – № 9 (31). – Vol. 1, September. – P. 26-28.

17. Muminov K., Amanov B., Buronov A., Tursunova N., Umirova L. Analysis of yield and fiber quality traits in intraspecific and interspecific hybrids of cotton. SABRAO Journal of Breeding and Genetics, 55 (2) 453-462, 2023

18. Pathak V.D., Patel U.G. Studies on heterosis, combining ability and phenotypic stability in Asiatic cotton (Gossypium herbaceum L.) // Gujarat. Agr. Univ. Res. J. – 2000. – Vol. 26. – № 1. – P. 75.

19. Shen Duanzhuang, Qian Siying, Liu Guiling, Huang Jungi, Xu Yongcai. Study of germoplazm fund of G.arboreum f. sinense // Zhou X.B, Acfa agron. sin. – 1987. – Vol. 13. – № 3. – P. 242- 247.

20. Singh V.V., Khadi B.M., Kulkarni V.N., Mohan P., Anjali K. Cotton // In: Plant Genetic Resources: Oilseed and Cash Crops. – B.S.Dhillon R.K.Tyagi S.Saxena, A.Agarwal (eds). – Narosa Publishing House, New Delhi, India, 2004. – P. 163-183.

TURLI GENOMLI DURAGAYLARNING MAHSULDORLIK KO‘RSATKICHLARI

Mo‘minov H.A., Xamroyev R.J., Toshpo‘latov Z.J., G‘aybullayev A.R.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq, O‘zbekiston, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi 104 uy.
Tel.: +99870 716-68-05, x.mominov@cspi.uz

Bugungi kunda jahonda g‘o‘zaning madaniy diploid (G.herbaceum L., G.arboreum L.) turlari, kenja turlari va shakllarining genetik potentsialidan samarali foydalanish orqali ularning noyob belgilarini madaniy tetraploid navlarga o‘tkazish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu o‘rinda ularning biomorfologik polimorfizmi, evolyutsion rivojlanishi, sistematik o‘rni va filogenetik munosabatlari, qimmatli xo‘jalik belgilarining nasldan-naslga o‘tishi, irsiylanish xarakterini o‘rganish stress sharoitlarga chidamli bo‘lgan yangi g‘o‘za navlarini yaratish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Shunga ko‘ra, g‘o‘zaning madaniy diploid turlarining (G.arboreum L.) kenja tur va shakllarini turichi va turlararo filogenetik munosabatlarini asoslash, morfobiologik va qimmatli xo‘jalik belgilarining nasldan-naslga o‘tishi va irsiylanish xarakterini ochib berish, duragaylash asosida ertapishar, tola chiqimi va sifati yuqori bo‘lgan, viltga, sho‘rga bardoshli noyob rekombinantlar yaratish hamda ularni genetika va selektsiya jarayonlarida qo‘llash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

G‘o‘za mahsuldorligining yuqori bo‘lishi nafaqat bir tup o‘simlikdagi ko‘saklar soniga, balki ko‘saklarda to‘liq urug‘lar tugilish darajasiga ham bog‘liqdir [1-4, 8-12].

Hozirgi kunda bir-biridan genetik va geografik jihatdan uzoq turlarni duragaylash va duragay shakllar olish, yovvoyi g‘o‘za turlarining irsiy belgilarini madaniy shakllar genotipiga o‘tkazish borasidagi izlanishlar amaliy selektsiyada muhim o‘ringa egadir [5, 13, 14].

B.A. Sirojidinov [6] ning ma'lumotiga ko‘ra, turli genomli geksaploid (2n = 78) g‘o‘za duragaylarining F1, F2, F1B1 o‘simliklarida mahsuldorlik ko‘rsatkichlari bir tup o‘simlikdagi ko‘saklar soni va ko‘sakdagi to‘liq urug‘lar tugilishi foizi o‘rganilgan. Izlanishlar natijasida yovvoyi g‘o‘za turlarining foydali belgilarini genetika va selektsiya jarayonlarida jalb etish ilmiy va amaliy ahamiyatga egaligi borasida fikr yuritgan.

Duragaylash ishlari umumiy qabul qilingan uslublar asosida olib borildi. Boshlang‘ich manbalar va ularni o‘zaro duragaylash natijasida olingan 2n = 39 xromosomali triploid duragaylarning chigitlarining mikropilyar qismidagi qobig‘ ozgina kesib tashlanib, Petri kosachasida (chashka) 30-350S haroratdagi termostatda undirildi. Undirilgan chigit nishlari 100 mg kolxitsin moddasini 100 ml suv bilan aralashtirib 0,1 % li eritma tayyorlab 5-24 soat davomida ta'sir etishi kuzatildi. So‘ngra nish otgan urug‘larni 1:1:1 nisbatda go‘ng, tuproq va qum aralashmasi solib tayyorlangan qog‘oz tuvakchalarga ekib undirildi. Tuvakchalardagi nihollar 2-3 haqiqiy chinbarg hosil qilgandan Vagner idishlarga o‘tkazildi. Ushbu unib chiqqan F1-o‘simliklari umum qabul qilingan uslublar asosida kuzatuv ishlari olib borildi. O‘suv davrining oxirida F1, F2-o‘simliklarning asosiy mofobiologik va qimmatli xo‘jalik belgilariga tavsif berildi [7].

Tajribada boshlang‘ich manba sifatida G.arboreum L. turichi duragaylash asosida olingan F1 (G.arboreum subsp. perenne x G.arboreum subsp. obtusifolium var. indicum), duragayi hamda G.hirsutum subsp. euhirsutum «Kelajak» navidan foydalanilgan.

Yuqoridagi olimlarning fikr, mulohazalaridan kelib chiqqan holda, boshlang‘ich manba sifatida ishtirok etgan G.arboreum L. turichi duragaylash asosida olingan F1 (G.arboreum subsp. perenne x G.arboreum subsp. obtusifolium var. indicum), duragayi hamda G.hirsutum subsp. euhirsutum «Kelajak» navining mahsuldorlik tarkibiy qismlaridan bir tup o‘simlikdagi ko‘saklar soni va ko‘sakdagi to‘liq urug‘lar tugilish foizi kabi belgilar o‘rganildi.

Olingan natijalarga ko‘ra, G.arboreum L. turichi duragaylash asosida olingan F1 (G.arboreum subsp. perenne x G.arboreum subsp. obtusifolium var. indicum) kombinatsiyasi otalik sifatida qatnashgan o‘simligida bir tup o‘simlikdagi ko‘saklar soni o‘rtacha -10 donani, ko‘sakdagi to‘liq urug‘lar tugilishi 94,1±1,24 %, o‘zgaruvchanlik amplitudasi yuqori bo‘lib (88,0-100,0 %), variatsiya

koeffitsiyenti -4,1 % ni tashkil etdi. Onalik sifatida ishtirok etgan G.hirsutum subsp. euhirsutum «Kelajak» navining mahsuldorlik tarkibiy qismlaridan bir tup o‘simlikdagi ko‘saklar soni o‘rtacha - 22 donani, va ko‘sakdagi to‘liq urug‘lar tugilish foizi 91,8 ± 1,93 %, o‘zgaruvchanlik amplitudasi yuqori bo‘lib (80,0-100,0 %), variatsiya koeffitsiyenti -6,6 % ekanligi qayd etildi.

Turli genomli o‘zaro chatishtirish asosida olingan amfidiploid F1G.hirsutum subsp. euhirsutum «Kelajak» navi x (G.arboreum subsp. perenne x G.arboreum subsp. obtusifolium var. indicum) kombinatsiyasida bir tup o‘simlikdagi ko‘saklar soni o‘rtacha -10 donani, ko‘sakdagi to‘liq urug‘lar tugilishi foizi 53,6 ± 8,56 past bo‘lib, o‘zgaruvchanlik amplitudasi o‘ta yuqori (22,7-87,9 %), variatsiya koeffitsiyenti juda yuqori bo‘lib, -4,1 % ni tashkil etdi.

Keyingi bo‘g‘ini ya'ni, F2 G.hirsutum subsp. euhirsutum «Kelajak» navi x (G.arboreum subsp. perenne x G.arboreum subsp. obtusifolium var. indicum) kombinatsiyasida bir tup o‘simlikdagi ko‘saklar soni o‘rtacha -13 donani, ko‘sakdagi to‘liq urug‘lar tugilishi foizi 81,7 ±2,48 past bo‘lib, o‘zgaruvchanlik amplitudasi yuqori (49,7-91,2 %), variatsiya koeffitsiyenti yuqoridagiga nisbatan past bo‘lib -9,5 % ekanligi kuzatildi.

Ta'kidlash kerakki, bir tup o‘simlikdagi ko‘saklar va ulardagi to‘liq urug‘larsonig‘o‘za turining irsiy imkoniyatlaridan tashqari tashqi muhit ta'siri ostida o‘zgarishi ham mumkin. Yuqori agrotexnik tadbirlarga e'tibor qaratilsa tupda ko‘saklar va undagi to‘liq urug‘ (chigit)lar soni ortadi natijada iqtisodiy potentsialga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi. Olib borilgan turlararo geografik o‘zoq bo‘lgan shakllarni o‘zaro chatishtirish asosida olingan amfidiploid o‘simliklari genetik va agrotexnik tadbirlarga mos ravishda yuqori avlodga ko‘tarilgan sari uning bir tup o‘simlikdagi ko‘saklar soni, ko‘sakdagi to‘liq urug‘lar tugilishi foizi kabi belgi ko‘rsatkichlari konstant holda kelishi imkoniyati yaratiladi. Ushbu foydali genotipga ega bo‘lgan shakllarni genetika va selektsiya jarayoniga boshlang‘ich manba sifatida jalb etish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аманов Б.Х., Абдиев Ф.Р. Формирование числа створок коробочки в одном растении у беккросс гибридов перуанского вида хлопчатника.//Ж.: Узбекский биологический журнал.- Тошкент: Фан, 2016.- № 4.- Б. 53-56.

2. Аманов Б.Х. Перу ғўза турларини туричи ва турлараро дурагайлаш асосида генетик жиҳатдан бойитилган тизмалар олиш.// биол. фан. док. (DSc). Автореферат. Тошкент: ЎзРФА Г ва ЎЭБИ. 2019. -Б. 13-14.

3. Муминов Х.А. Наследование некоторых хозяйственно-ценных признаков у внутривидовых разновидностей хлопчатника и полученных на их основе F1-растений. Современная биология и генетика (Международный научный журнал), №1-2. Изд. ООО «Lesson press». 2022.- С. 71-77.

4. Мўминов Х.А. G.herbaceum L. туричи F1-ўсимликларида айрим қимматли хўжалик белгиларининг ирсийланиши. Academic Research in Educational Sciences (ARES). 2022. - Vol. 3 Issue: 3. - P. 1048-1057.

5. Ризаева С.М., Абдуллаев А.А., Сирожидинов Б.А., Арсланов Д.М. Отдаленная гибридизация хлопчатника и получение новых доноров. - Ташкент: Изд. Навруз. 2018. -268 с.

6. Сирожиддинов Б.А. Турли геномли гексаплоид (2n = 78) ғўза дурагайларининг F1, F2, F1B1 ўсимликларида маҳсулдорлик кўрсаткичлари.//Дала экинлари селекцияси, уруғчилиги ва агротехнологияларининг долзарб йўналишлари: Халқаро илмий-амалий конференция материаллари.- ПСУАИТИ.- 2016 йил 15-16 декабр.- Т. I.- Тошкент, 2016.- Б. 149-152.

7. Abdurakhmonov I.Y., Abdullaev A., Buriev Z., Shermatov Sh., Kushanov F.N., Makamov A., Shapulatov U., Egamberdiev Sh.S., Salakhutdinov I.B., Auybov M., Darmanov M., Rizaeva S.M., Abdullaev F., Nomozov Sh., Khalikova M., Saydaliev H., Avtonomov V.A., Snamyan M., Duiesenov T.K., Musaev J., Abdullaev A.A., Abdukarimov A. Cotton germplasm collection of Uzbekistan.//In

book: World Cotton Germplasm Collection.- Chapter 11.- Ed. Abdurakhmanov I.Y.- Intech, 2014.- P. 289-309.

8. Amanov B., Muminov K., Samanov S., Abdiev F., Arslanov D., Tursunova N. Cotton introgressive lines assessment through seed cotton yield and fiber quality characteristics. SABRAO Journal of Breeding and Genetics, 2022. 54 (2) - P. 321-330.

9. Hidoyatova D.X., Mo'minov H.A. G'o'zani Gossypium turkumi turlaridan foydalanilishi bo'yicha tadqiqotlar tahlili. Academic Research in Educational Sciences (ARES). 2022. - Vol. 3 Issue: 1. - P. 959-971.

10. Hidoyatova Diyora Xamidulla qizi, G'aybullayev Alisher Ravshan o'g'li, Mo'minov Hasan Aliqulovich G.herbaceum L. turichi shakllarida sitoembriologik belgilarining qiyosiy tahlili. Academic Research in Educational Sciences (ARES). 2023. - Vol. 4 Issue: 5. - P. 11-18.

11. Muminov Kh.A. Inheritance of morphological traits in F1-plants of species Afro-Asian cotton. Universum: химия и биология: научный журнал. – № 6(84). Часть 2. М., Изд. «МЦНО», 2021.- С. 49-54.

12. Muminov K., Amanov B., Buronov A., Tursunova N., Umirova L. Analysis of yield and fiber quality traits in intraspecific and interspecific hybrids of cotton. SABRAO Journal of Breeding and Genetics, 55 (2) 453-462, 2023

13. Rizaeva S.M., Amanov B.Kh., Rafieva F.U., Arslanov D.M., Muminov Kh.A., Samanov Sh.A. Indicators of economic traits of lines of cotton derived from interspecific (G. hirsutum L. x (G. thurberi Tod. x G. raimondii Ulbr.) hybridization. The Way of Science International scientific journal, № 7 (53), 2018. P. 26-29.

14. Sirojidinov B.A., Abdullayev A., Sherimbetov A.G., Narimanov A.A., Omonov B.A. Tolerance of new introgressive hybrid and backcross forms pathogenic micromitisms (Verticillium dahliae Kleb and Fusarium oxyporum f.sp.vasinfectum).// American Journal of Plant Sciences, 9, p.1308-1320. (https://doi.org/10.4236/ajps.2018.96096).

ИЗУЧЕНИЕ ФИЗИОЛОГИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ВОДНОГО ОБМЕНА РАСТЕНИЙ ВНУТРИ- И МЕЖВИДОВЫХ ЛИНИЙ ХЛОПЧАТНИКА В РАЗНЫХ УСЛОВИЯХ ВОДООБЕСПЕЧЕННОСТИ

Набиев С.М., Азимов А.А., Шавкиев Ж.Ш., Юлдашов У.Х., Рафиева Ф.У.

Институт генетики и экспериментальной биологии растений АН РУз, Ташкентская область, Узбекистан, e-mail m.saydigani@mail.ru

